

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 245 (1571), 2025-yil 26-noyabr, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



SAMARQANDDAGI YANGILANISHLAR IQTISODIYOT RIVOJI VA AHOLINING TURMUSH DARAJASIGA IJOBIY TA’SIR KO’RSATMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev 25-noyabr kuni ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonlari bilan tanishish hamda kelgusidagi vazifalarni faollar ishtirokida belgilab olish uchun Samarqand viloyatiga tashrif buyurdi.



Davlatimiz rahbari Samarqandga tashrifini taomilga ko’ra, Imom Buxoriy maqbarasini ziyorat qilish bilan boshladi. Qur’on tilovat etilib, duo o’qildi.

Prezidentimizning tashabbusi bilan mazkur majmua buyuk muhaddis bobomizning islom olamida tutgan yuksak mavqei, ulkan salohiyatiga munosib tarzda qaytadan bunyod etildi. Umumiy maydoni 45 gektarni tashkil etadigan hududda ulkan maqbara, 10 ming kishilik masjid va ma’muriyat binosi, muzey, kirish va chiqish ayvonlari qurildi. Ziyoratgohning 4 burchagidagi 75 metrlik minoralar unga mahobat bag’ishlagan.

Bu joy faqat ziyorat emas, ilm-ma’rifat, tarbiya va ibrat maskani bo’lishi, Imom Buxoriyning buyuk izlanishlari, bilimi hamda kamoloti ziyoratchilar, ayniqsa, yoshlar uchun ezu namuna bo’lishi kerakligi e’tiborga olinib, majmuada innovatsion muzey tashkil etildi. U islom olamida muhaddislar sultoni deya e’tirof etilgan Imom Buxoriyning hayoti va ilmiy merosi, islom ma’rifati rivojiga qo’shgan hissasini namoyon etadi.

Majmua avval bir kunda 12 ming ziyoratchiga xizmat ko’rsatgan bo’lsa, hozir 65 ming nafar mehmonga xalqaro standartlarga mos xizmat ko’rsatish imkoniyati yaratilgan.

Bundan tashqari, hududda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va Hadis ilmi maktabi joylashgan.

Ziyoratgoh atrofida 570 milliard so’m mablag’ sarflanib, mehmonxonalar va savdo-servis nuqtalari tashkil etildi. Bunda 1 ta to’rt yulduzli, 2 ta uch yulduzli mehmonxonalar hamda 22 ta oilaviy mehmon uyi qurilgan. Mazkur obyektlar to’liq kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta’minlanib, hududi obodonlashtirilgan. 2026-yilga qadar hududda ko’kalamzorlashtirish ishlari nima amalga oshirish hamda avtoturargohlarni tashkil etish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari Imom Buxoriy ziyoratgohi xalqimizning boy ma’naviy merosi va bunyodkorlik salohiyatining yorqin namunasi

bo’lganini ta’kidlab, majmuada ayni paytda olib borilayotgan so’nggi obodonlashtirish ishlari sifati va o’z vaqtida bajarish yuzasidan mas’ullarga topshiriqlar berdi.

Prezidentimiz Oqdaryo tumani Dabbed shaharchasida joylashgan Mahdumi A’zam majmuasida amalga oshirilayotgan rekonstruksiya ishlari bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari shu yilning mart oyida viloyatga tashrfi chog’ida Mahdumi A’zam qadamjosini obod qilishga oid loyiha bilan tanishgan edi.

Asli hozirgi Kosonsoy tumanida tug’ilgan so’fiy olim naqshbandiya ta’limotining rahnamolaridan biri bo’lgan. Yoshlik chog’larida Farg’onadagi madrasada savod chiqarib, Samarqandda Xoja Ahror Valiyning shogirdi mavlono Muhammad Qoziy qo’lida pirlik darajasiga yetishadi. Keyinchalik o’zi tariqat ilmiga doir 30 dan ziyod asar yozgan, ko’plab shogirdlari yetishtirgan.

Bu zotga ilm yo’lidagi xizmatlari uchun Mahdumi A’zam unvoni beriladi. Ilm va din yo’lidagi uzoq safardan so’ng Samarqandda abadiy qo’nim topgan.

Samarqand hukmdori bo’lgan Yalangto’sh Bahodir Mahdumi A’zam qabri ustida daxma qurdirgan hamda bu yerda yirik masjid, ilm toliblari uchun madrasa barpo qilgan. U vafot etganidan so’ng o’z vasiyatiga ko’ra, shu yerda dafn etilgan. Umuman, ziyoratgohda 50 dan ziyod qabrtosh saqlangan bo’lib, aksariyati kimning sharafiga qo’yilgani aniqlangan. Bu yerda ko’plab allomalar qatorida ikki nafar Afg’oniston hukmdori (Shoh Hidayat ibn Shoh Qosim (1668-yil), Shoh Saodat ibn Shoh Hidayat) ham dafn etilgan.

Alloma mangu qo’nim topgan ziyoratgohda loyiha doirasida keng ko’lamli rekonstruksiya ishlari amalga oshirilmoqda.

Mahdumi A’zam ziyoratgohining umumiy maydoni qariyb 5 gektarni tashkil etadi. Bu maskanga keluvchi ziyoratchilar ham ko’p. Ularga sharoitlarni yaxshilash maqsadida Mahdumi A’zam maqbarasi yonida uch qavatli

zamonaviy avtoturargoh, kirish darvozasi, kushxona va ma’muriy binolar, tahoratxona, ming kishilik masjid va qo’shimcha ayvonlar qurilmoqda.

Ta’mirlash ishlariidan so’ng bir vaqtning o’zida 35 ming ziyoratchini qabul qilish imkoniyati yaratiladi. Avvallari 5 ming ziyoratchi qabul qilingan.

Shuningdek, hududda ziyoratchilarga qo’shimcha qulaylik yaratish maqsadida obodonlashtirish ishlari olib borilib, 40 dan ortiq savdo va servis obyektlari tashkil etiladi.

Alloma yodga olinib, Qur’on tilovat qilindi. Prezident ziyoratgohda daraxt ekdi.

Ziyoratgohni yanada obodonlashtirish, bog’dan ko’p yillik daraxt ko’chatlari o’qzab, tashrif buyuruvchilar uchun qulayliklar yaratish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Davlatimiz rahbari Samarqand shahridagi Hazrati Hizr majmuasida ham bo’lib, mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov maqbarasiga gul qo’ydi.

Qur’on oyatlari tilovat etilib, duo o’qildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev “Samarqand — Urgut” yangi temir yo’li liniyasida olib borilayotgan ishlari bilan tanishdi.

Ushbu temir yo’li qurilishi joriy yil fevral oyida boshlangan bo’lib, umumiy uzunligi 55 kilometrni tashkil etadi. Loyiha doirasida ikkita vokzal, “Urgut” erkin iqtisodiy zonasida ikkita yuk stansiyasi hamda bir qator ko’priklar barpo etildi. E’tiborlisi, mazkur liniyani kelgusida to’liq elektrlashtirish rejalashtirilgan.

Yangi yo’nalish ikki juft shaharlararo poyezd va to’qqiz juft yuk poyezdi qatnovini ta’minlash imkoniyatiga ega. Loyihani shu yil oxiriga qadar yakunlash ko’zda tutilgan. Poyezdlar qatnovi yo’lga qo’yilishi orqali yiliga 359 ming yo’lovchi va 8,2 million tonna yuk tashish imkoni yaratiladi.

Yo’nalish Samarqand shahri, Toyloq va Urgut tumanlari aholisi uchun xavfsiz va zamonaviy transport xizmati taqdim etishi bilan ahamiyatli. Shuningdek, ichki turizm rivojiga ham katta turki beradi.

Temir yo’li infratuzilmasi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo’lib, ushbu loyiha “Urgut” erkin iqtisodiy zonasi salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Yangi yo’nalish ishga tushishi natijasida 130 ta yangi ish o’rni yaratiladi.

Davlatimiz rahbari jamoatchilik vakillari bilan birga mazkur yo’nalishda harakatlanuvchi poyezdda Urgutga bordi.

Safar chog’ida Prezidentimiz temir yo’li infratuzilmasini rivojlantirish, yo’lovchilar uchun qulayliklarni yanada oshirish, temir yo’llarni elektrlashtirish va ularga tutash hududlarni obodonlashtirish yuzasidan mutasaddilarga qo’shimcha topshiriqlar berdi. Shuningdek, yo’l bo’ylab amalga oshirilayotgan qurilish va obodonchilik ishlari e’tibor qaratdi.

Urgut tumani katta salohiyatga ega hudud sifatida tobora muhim o’rin egallab borayotgani ta’kidlandi. Bu yerdagi aholi ishbilamon, tadbirkorlik ruhi kuchli. Mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo’lgan bunday hududlarni rivojlantirishda esa zamonaviy logistika va infratuzilma hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Yangi temir yo’lining kelishi bilan Urgutda iqtisodiy o’sishni cheklab turgan to’siqlar, logistik “tromb”lar bartaraf etiladi. Yuk tashish tezlashadi, mahsulotlar bozorlarga arzon va vaqtda yetkaziladi, investorlar uchun qulayliklar yanada ortib, hududning raqobatbardoshligi oshadi.

Eng muhimi, hududda yaratilayotgan yangi imkoniyatlar aholining turmush darajasiga bevosita ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Infratuzilma rivojlangan joyda ish o’rinlari ko’payadi, xizmatlar yaxshilanadi, tadbirkorlik faollashadi.

Ta’kidlanishicha, mazkur loyiha temir yo’li tamog’ini modernizatsiya qilish va kengaytirishga qaratilgan ishlarning muhim qismi hisoblanadi. Bu jarayonda ishlarni o’z vaqtida va yuqori sifatda amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda xarajatlarni optimallashtirish zarurligi aytiladi.

Safar chog’idagi suhbatda davlatimiz rahbari Samarqand bo’layotgan ijtimoiy-iqtisodiy

yangilanishlarning odamlar hayotidagi ijobiy aksi yaqqol ko’zga tashlanayotgani, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, Yangi O’zbekistonning bunyodkorlari sifatida tarbiyalash haqida so’z yuritdi. Urgutgacha tortilgan temir yo’lga tutash yerlarni o’zlashtirish, ularda qishloq xo’jaligi madaniyatini yuksaltirish, ta’lim sohasida, shu jumladan, qo’shni davlatlar bilan xalqaro hamkorlikni mustahkamlash zarurligi ta’kidlandi.

Urgut vokzali yangi yo’nalishning asosiy nuqtalaridan biri. Prezidentimiz vokzal infratuzilmasi, xizmat ko’rsatish tizimi va yo’lovchilar harakatini tashkil etish masalalariga e’tibor qaratdi. Turistlar uchun qulayliklarni yaxshilash muhimligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari shu yerda Urgut tumani faollari bilan samimiy muloqot o’tkazdi. Suhbatda hududlardagi o’zgarishlar, aholi turmush tarzi va tinchlik qadri haqida fikr almashildi.

Odamlarning turmush sharoitlarini yaxshilash, daromad va farovonlikni oshirish, mahallalarni obod qilish davlat siyosatida ustuvor yo’nalish sifatida belgilanayotgani ta’kidlandi. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o’zgarishlar natijasida sanoat, qishloq xo’jaligi, turizm, transport va energetika sohaslarida yirik loyihalar amalga oshirilayotgani qayd etildi.

Nuroniyalar bu o’zgarishlar aholi hayotida sezilarli natija berayotgani, xalqimiz islohotlarga yuqori baho berayotganini ta’kidladi.

Shuningdek, Prezidentimiz vokzal atrofida aholi farovonligi va hududning iqtisodiy jozibadorligini oshirishga qaratilgan qo’shimcha loyihalar taqdimoti bilan ham tanishdi. Tadbirkorlar tashabbusi asosida yaqin hududlarda avtovokzal, choyxona, ekobozor, turar joy binolari, xususiy maktab va bog’chalar barpo etish rejalashtirilmoqda.

Ushbu ishlar amalga oshirilishi natijasida aholiga yangi xizmat turlari yaratiladi, hududning ijtimoiy infratuzilmasi yaxshilanadi, tadbirkorlik muhiti yanada faollashadi. Eng muhimi, 350 nafarga yaqin fuqaroning doimiy

bandligi ta’minlanib, hududning iqtisodiy o’sishiga qo’shimcha turki beriladi.

Davlatimiz rahbari Urgut tumanidagi “Ferre Group” korxonasiining maishiy texnika ishlab chiqarish loyihasi faoliyati bilan tanishdi.

“Urgut” erkin iqtisodiy zonasidagi mazkur korxona keyingi yillarda yurtimizda tadbirkorlik subyektlariga yaratilgan qulay imkoniyat va ishonchli investitsiya muhiti natijasida tashkil etilgan zamonaviy ishlab chiqarish majmuasi sanaladi.

Dastlab xorijdan keltirilgan butlovchi buyumlar asosida bir necha turdagi maishiy texnika vositalarini yig’ish bilan faoliyat boshlagan korxona bugunga kelib muzlatkich, gaz plita, kichik pech, changyutkich, dudburon va boshqa uy-ro’zg’or buyumlari, zamonaviy temir eshiklar ishlab chiqarish bo’yicha Markaziy Osiyoda mustahkam o’ringa ega yirik kompaniyaga aylangan.

Bu yerda “Dorsa”, “Kleo”, “Ferre” kabi brendlar ostida “O’zbekistonda ishlab chiqarilgan” yorlig’i bilan tayyorlanayotgan mahsulotlar Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjonga eksport qilinmoqda. Ichki bozordagi raqobat muhitida ham “Ferre” o’z o’mini topgan brendga aylangan. Korxonaning yillik quvvati hozirda o’rtacha 440 milliard so’mlik 250 ming dona mahsulotni tashkil etib, bu ko’rsatkich yil sayin oshib bormoqda.

Ishlab chiqarish jarayonida “Embraco”, “LG”, “DOW”, “Midea” kabi dunyodagi yetakchi kompaniyalar materiallari va butlovchi qismlaridan foydalaniladi. Bugungi kunda korxona mahsulotlarining mahalliyashtirish darajasi qariyb 85 foizni tashkil etadi.

Loyihaning umumiy qiymati o’ttiz million AQSH dollari bo’lib, xorijiy investitsiya va bankning imtiyozli kreditlari jalb etilgan. Minga yaqin ish o’rni yaratilgan. Ishlab chiqarish uskunalari Germaniya, Turkiya, Italiya va Xitoyning eng so’nggi rsumdagi texnologiyalari hisoblanadi.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining
F A R M O N I

**A.M.BOBOYEVNI
SAMARQAND VILOYATI
HOKIMI LAVOZIMIGA
TAYINLASH TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga asosan hamda xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining qaroriga muvofiq **Adiz Muzafarovich Boboyev** Samarqand viloyati hokimi lavozimiga tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2025-yil 25-noyabr

Keyingi yillarda yurtimizda agrar va oziq-ovqat sohaslaridagi huquqiy islohotlar qishloq xo’jaligi tizimini tubdan yangilash, zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish va faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilyapti. Joriy yilning o’zida mazkur yo’nalishda keng qamrovli tashabbuslar amalga oshirildiki, bular izchil rivojlanishga huquqiy poydevor yaratdi.

QISHLOQ XO’JALIGI ISLOHOTLAR SAMARASI NATIJADA NAMOYON

Jumladan, 2025-yilda agrar va oziq-ovqat yo’nalishida ishlab chiqilgan 99 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasidan 52 tasi qabul qilindi. Ular qishloq xo’jaligini isloh qilishning yangi bosqichini belgilab, sohadagi boshqaruv tizimini shaffof, zamonaviy va natijaga yo’naltirilgan shaklga aylantirmoqda. Chunki ushbu hujjatlar asosida oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo’nalishlari, mahsulot tanqisligining oldini olish choralari hamda oziq-ovqat balansini shakllantirish tartibi belgilab berildi.

Fermer va tadbirkorlarni tabiiy ofatlar, iqlim o’zgarishi hamda bozor tavadakkalchiligidan

himoyalash, sug’urta hodisalari bo’yicha zararlarni qoplash tartibi qonun bilan aniqlashtirib olindi. Ekin maydonlari unumdorligini oshirish va investitsiya muhitini yaxshilash bo’yicha yangi tizim joriy etildi. Yer uchastkalarini e-auksion platformasida auktsion orqali ijaraga olishda barcha fuqarolar, yuridik shaxslar va chet el investorlari ham ishtirok etishi belgilandi. Bu tizim asosida yer munosabatlarida shaffollik va teng imkoniyatlar muhiti yaratildi. Sohada raqamli islohotlar yangi bosqichga ko’tarildi.

Davomi 4-betda



EKOLOGIYANI EMAS, O‘ZIMIZNI QUTQARISH FURSATI

Bugungi global dunyoda ekologiya, atrof-muhit va iqlim o’zgarishi masalalari xalqaro forum, konferensiya va mamlakat yetakchilari uchrashuvidagi eng dolzarb mavzular qatoridan joy olmoqda. Mamlakatimizda so’ngi kunlarda kuzatilgan vaziyat — atmosfera havosining ifloslanishi bilan bog’liq muammo ko’plab muhokamalarga sabab bo’ldi. Xo’sh, jamoatchilik faollari ijtimoiy tarmoqlar orqali ko’tarilgan muammolarga hukumat qanday munosabat bildirdi? Qaysi qaror yoki farmonda ushbu masalalar yechimi o’z aksini topdi?

Davomi 2-betda

Samarqanddagi yangilanishlar iqtisodiyot rivoji va aholining turmush darajasiga ijobiy ta’sir ko’rsatmoqda

Boshlanishi 1-betda

Shavkat Mirziyoyev bu yerdagi ishlab chiqarish jarayonini kuzatdi, korxona mas’ullari va mutaxassislar bilan suhbatlashib, xalqaro standartlarga mos mahsulotlar turini oshirish va xorij bozoridagi o’mini yanada mustahkamlash zarurligini ta’kidladi. Bu borada davlat tomonidan yaratib berilgan imkoniyat va imtiyozlardan unumli foydalanish zarurligi qayd etildi.

O’z brendiga asos solib, yurtimiz dovrug’ini dunyoga taratayotgan tadbirkorlar doimo qo’llab-quvvatlanishi aytiladi. Ular qo’shimcha qiymat yaratib, minglab odamlarni doimiy daromadga ega qilmoqda.

Tadbirkorni qo’llab-quvvatlamasdan yangi O’zbekistonni barpo qila olmaymiz. Agar sizlar tinimsiz izlanib, birlashsangiz, Samarqandda kambag’al degan qatlam qolmaydi. Harakatda bo’lib, O’zbekiston nomini jahonga tanitishdek imkoniyatga egasiz, — dedi Prezident.

Davlatimiz rahbari “Urgut” erkin iqtisodiy zonasida bu kabi ishlab chiqarish korxonalarini ko’paytirish orqali qo’shimcha qiymat yaratish va yangi ish o’rinlari ochishning muhimligini ta’kidlab, mas’ullarga topshiriqlar berdi.

Shu yerda Prezident investitsiya loyihalari, Samarqand viloyatidagi yetakchi sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ko’rgazmasi bilan tanishdi.

Taqdimotda sog’liqni saqlash, tog’-kon sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish, texnopark, ipakchilik va metallurgiya yo’nalishlaridagi qator loyihalar haqida ma’lumot berildi.

Samarqand shahrida Turkiyaning nufuzli kompaniyalari bilan hamkorlikda davlat-xususiy sherikligi asosida ko’p tarmoqli shifoxona tashkil etish loyihasi amalga oshiriladi. Ushbu loyiha doirasida 1 ming nafar ish o’rni yaratiladi.

Bulung’ur tumanida esa Xitoy kompaniyasi bilan tibbiy preparatlar ishlab chiqarishni yo’lga qo’yish rejalashtirilgan. Bu loyiha doirasida ham 1 ming nafar odamning bandligi ta’minlanadi.

Shuningdek, Xitoy kompaniyalarining Urgut tumanida ipak tolasi hamda mato ishlab chiqarish, Nurobod tumanida texnopark maxsus sanoat zonasini tashkil etish, Samarqand shahrida po’latni eritishda foydalaniladigan kimyoviy qotishmalar tayyorlash, Pastdarg’om tumanida ko’chma inshootlar yasash kabi loyihalar taqdim etildi.

Loyihalarni o’z vaqtida sifati va tezkor amalga oshirish bo’yicha mas’ullarga tegishli topshiriqlar berildi.

Shundan so’ng xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi o’tkazildi.

Sessiyada O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev so’zga chiqib, avvalo, viloyat jamoatchiligi bilan ko’rishib turganidan mamnunligini ta’kidladi. Viloyatda erishilgan yutuqlar va hali ishga solinmagan imkoniyatlarga to’xtaldi.

O’zida ko’p ming yillik tarix va qadriyatlarini mujassam etgan, zamonaviy me’morchilik an’analari asosida kundan-kunga chiroy ochib borayotgan bu ulug’ zamin dunyo sivilizatsiyasida o’z o’rnini tobora mustahkamlab bormoqda, — dedi Prezidentimiz.

Xususan, “Buyuk ipak yo’li” xalqaro turizm markazi barpo etilgani, 40 dan ziyod muqaddas ziyoratgohlar obod bo’lgani, “Samarqand” xalqaro aeroporti yangidan qurilgani, o’nlab xalqaro brend mehmonxonalari ish boshlagani viloyat turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqdi.

Samarqand so’nggi yillarda siyosiy, iqtisodiy, turizm va biznes markaziga, ko’plab yirik xalqaro tadbirlar, forum va anjumanlar uchun muloqot maydoniga aylandi.

Shu yilning o’zida bu yerda 40 dan ortiq nufuzli xalqaro anjuman tashkil etilgani, ayniqsa, yaqinda UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi o’tkazilgani chindan ham ulkan voqea bo’ldi.

Umuman, turizm va unga turdosh sohalarga 1 milliard dollar investitsiya kiritilgani uchun viloyatga sayyohlar oqimi 2016-yilgidan 7 karra o’sdi, turizm xizmatlarining eksporti 600 million dollarga yetdi.

Bugun viloyat nafaqat turizm, balki sanoat, qishloq xo’jaligi va xizmat ko’rsatishdagi ulkan salohiyati bilan investor va tadbirkorlar uchun chinakam jozibador maskanga aylanib bormoqda.

O’tgan sakkiz yilda viloyatga 12 milliard dollar investitsiya kiritildi, 600 ming doimiy ish o’rni yaratildi, tadbirkorlar 2 karra ko’paydi.

Ishlab chiqarish korxonalarining soni 1,5 barobar, sanoat hajmi 1,7 barobar o’sdi. Yillik aylanmasi 100 milliard so’mdan oshgan korxonalar soni 81 taga yetdi. 55 ta davlatdan xorijiy investorlar ish boshladi, chet el ishtirokidagi korxonalar soni 700 taga yaqinlashdi.

Xizmatlar yiliga o’rtacha 15 foizdan o’syapti, bu yil servis hajmi 75 trillion so’mga yetadi.

Shuningdek, 2024-yil va joriy yilning 10 oyida 15 million kvadrat metrli uy-joy va tijorat obyektlari barpo etildi. Samarqandlik quruvchilar respublika bo’yicha yiliga 4,5 million kvadrat metrli bino-inshootlar quraypti.

Viloyatning yalpi hududiy mahsuloti 2016-yilda 23 trillion so’mni tashkil etgan bo’lsa, bu yil 120 trillion so’mga yetishi kutilmoqda.

Odamlar viloyatda amalga oshirilgan ishlar hisobiga oilasida katta ijobiy o’zgarishlar bo’lganini aytmoqda.

Masalan, o’tgan davrda 2 trillion so’mlik 3 ming 200 kilometr ichimlik suvi va kanalizatsiya tarmoqlari qurildi.

Bir so’z bilan aytganda, Samarqandni aholi va tadbirkorlar uchun ham, turistlar va investorlar uchun ham jozibador hududga aylantira oldik, — dedi Prezidentimiz.

Respublika tumanlari ichida aholisi eng ko’p Urgutda 600 mingdan ortiq odam istiqomat qilaypti.

Urgut tumani uzoq yillardan beri viloyat qishloq xo’jaligida yetakchi. Adir va toshloq yerda “Urgut” erkin iqtisodiy zonasini tashkil qilganimiz, 860 million dollarlik 74 ta loyiha ishga tushgani natijasida Urgut sanoatlashgan hududga aylandi, — dedi davlatimiz rahbari.

Sanoat rivojlanishi savdo va servisa ham katta turtki berdi. Hozir Urgut viloyat sanoatida uchinchi o’rinda, servisa esa to’rtinchi o’rinda.

Bugun Urgutda yana bir tarixiy voqea — 55 kilometr temir yo’l liniyasi ishga tushirildi. Ushbu tarmoqni elektrlashtirish ishlari kelasi yil to’liq yakuniga yetkaziladi. Bu, avvalo, aholiga yanada qulay sharoit yaratish bilan birga sanoat, qishloq xo’jaligi va servisa yangi imkoniyatlar eishigini ochib beradi.

Hududdagi aholi uy-joy, kanalizatsiya, ichimlik suvi, maktab, bog’cha, shifoxona, biznes infratuzilmasi bilan bog’liq masalalar yechimini anchadan beri kutayotgani ko’rsatib o’tildi. Shuning uchun Prezidentimiz Urgut markaziga “Yangi O’zbekiston” qiyofasini olib kirib, yurtimizdagi eng zamonaviy va ko’rkam shaharlardan biriga aylantirish bo’yicha alohida qarorni imzoladi.

Tumanning Quyi Kamarganor mahallasidagi “Yangi O’zbekiston” massiviga tutash hududdan 90 gektar qo’shimcha joy ajratib, zamonaviy urbanistikda asosida 100 ming aholiga mo’ljallangan ekoshahar barpo etilishi e’lon qilindi.

Yangi shaharda yo’l, suv, kanalizatsiya, elektr, maktab, bog’cha, shifoxona va boshqa infratuzilma obyektlarini qurish, tadbirkorlik loyihalari uchun 50 million dollar ajratiladi.

Yangi shaharning 3 gektar maydonida tumanning 35 ta tashkiloti uchun yagona ma’muriy markaz qurib beriladi. Ularning bo’shagan binolari esa biznes uchun xususiy sektorga taklif qilinadi.

Yana bir yangilik — Oqdaryo, Payariq, Pastdarg’om, Toyloq va Samarqand tumanlaridagi 17,5 ming gektar hudud Samarqand shahriga qo’shib beriladi. Buning hisobiga Samarqand shahri aholisi 604 mingdan 882 mingga oshadi.

Shu bois, aholisi va daromadi kundan-kunga o’sib borayotgan Samarqand shahrida zamonaviy uy-joylarga bo’lgan talabni ta’minlash uchun 3 ta yirik massiv tanlab olindi. Jumladan, “Shirin” massivida 180 ming, “Temir yo’lorti” hududida 100 ming, “Qorasuv-2” massivida 30 ming aholi uchun 700 dan ortiq zamonaviy ko’p qavatli uylar barpo etiladi.

Bu yerlarda maktab, bog’cha, oliyog’ va shifoxona, zamonaviy biznes va savdo markazi, mehmonxona va restoran, ko’ngilochar maskanlar ham quriladi. Ispaniyalik investorlar bilan xususiy sheriklik asosida ushbu 3 ta massivning kanalizatsiya tizimi yangilanadi.

Shaharda yuk transporti harakatini kamaytirish maqsadida Oqdaryo, Toyloq va Samarqand tumanidan o’tuvchi magistral yo’l bo’yida 4 ta logistika markazi barpo etiladi.

Davlatimiz rahbari Urgut misolida imkoniyatlarini tahlil qilib, vazirlar va hokimlar oldiga keyingi yil uchun aniq vazifalarni qo’ydi. Sessiyada tashkiliy masala ham ko’rib chiqildi.

Biz yurtimizda inson qadrini ulug’lash, iqtisodiyotni barqaror o’stirish orqali aholi farovonligini oshirish bo’yicha katta-katta marra va rejalarini olaypmiz. Bu ishlarni tashkil qilish uchun viloyatga zamonaviy fikrlaydigan, muammolarni tizimli tahlil qilib, innovatsion yechim berda olishga salohiyatli rahbar kerak, — dedi davlatimiz rahbari.

Prezidentimiz Samarqand viloyati hokimi lavozimiga hokim vazifasini bajarib kelayotgan Adiz Boboyev nomzodini tavsiya etdi.

Viloyat faollari, deputatlarning nomzod haqidagi fikrlari tinglangach, viloyat hokimini tayinlash masalasi ovroga qo’yildi. Ovoz berish natijalariga ko’ra, Adiz Boboyev viloyat hokimi etib tashdiqlandi.

Prezidentimiz yangi hokimga u ish o’rni yaratishi, kambag’alnikni qisqartirish, investitsiya va eksportni ko’paytirish, tanarnaxi kamaytirish hamda energiya tejamonlikni oshirish bo’yicha Samarqandni namunali hududga aylantirishi shartligini ko’rsatib o’tidi.

Yig’ilish yakunida davlatimiz rahbari mas’ullarning hisobotlari va rejalarini tingladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev viloyatga tashrfi davomida Raqamli sog’liqni saqlash markazi va Respublika ixtisoslashtirilgan

kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Samarqand filiallari faoliyati bilan tanishdi.

Oxirgi bir yilda mamlakatimizda tibbiyotni raqamlashtirish ishlari butunlay yangi bosqichga ko’tarildi. Bu ishlarni yo’lga qo’yish maqsadida Sog’liqni saqlash vazirligi tizimida Raqamli sog’liqni saqlash markazi ochildi.

Ushbu markazning Samarqanddagi filialida olib borilayotgan ishlar davlatimiz rahbariga taqdimot qilindi. Viloyatdagi tibbiyot muassasalarida raqamlashtirish ishlarning borishi, kasalliklar, bemorlar va dori vositalari to’g’risidagi ma’lumotlarni to’plash hamda ularga ishlav berish uchun qo’llanilayotgan dasturiy yechimlar va sun’iy intellekt texnologiyalari, bularning barchasi amalda qanday natijalar berayotgani to’g’risida batafsil axborot berildi.

Jumladan, sohada DMED yagona elektron axborot platformasi ishga tushirilib, unga 36 million nafardan ziyod aholining tibbiy ma’lumotlari kiritildi. Tez tibbiy yordam xizmatida elektron boshqaruv yo’lga qo’yilib, chaqiriqlarga yetib borish vaqti qisqarmoqda.

Shuningdek, “Elektron retsept” tizimi faoliyatining yo’lga o’yilishi natijasida ortiqcha dori yozish holatlari 40 foizga kamaydi, dori vositalarining aylanmasi shaffoflashdi.

Mamlakat bo’ylab davlat tibbiyot muassasalari zamonaviy axborot-kommunikatsiya jihozlari bilan ta’minlandi, yagona raqamli infratuzilma shakllantirildi. Uch mingdan ortiq tibbiyot muassasasi lokal tarmoq bilan ta’minlandi. Minglab yangi kompyuterlar xarid qililib, texnik baza yangilandi.

Prezidentimiz raqamlashtirish orqali sog’liqni saqlash bilan bog’liq barcha analitik ma’lumotlarga ega bo’lish davlat uchun muhimligini, bu — tibbiyotni rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlarini belgilash, sohada mablag’ va resurslarni to’g’ri taqsimlash, dori-darmon muomalasini tartibga solish va korruptsiya holatlariga barham berishning muhim vositasi ekanini ta’kidladi. Mutasaddilarga bu boradagi ishlarni tizimli davom ettirish bo’yicha ko’rsatmalar berdi.

Bemorlar oqimi, kasalliklar tuzilishi, davolash sifatiini chuqur tahlil qilib bersak, biz tizim samarasini yanada oshira olamiz, — dedi Prezidentimiz.

Dori vositalari berilishini shaffof va tizimli qilish, shuningdek, litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish masalalari ham ko’rib chiqildi.

Yurtimizda yurak-qon tomir kasalliklarini erta aniqlash va yuqori texnologiyali tibbiy xizmatlarni kengaytirishga alohida e’tibor

qaratilmoqda. Barcha hududlarda bo’lgani kabi Kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Samarqand filiali ham tubdan yangilanib, zamonaviy qiyofa kasb etdi.

Davlatimiz rahbari bu yerdagi sharoitlar bilan tanishdi.

Markazni rivojlantirish uchun jami 52 milliard so’m yo’naltirilib, keng ko’lamli rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi. Bugungi kunda markaz 100 o’rinli shifo maskaniga aylangan bo’lib, 262 turdagi tibbiy uskunalar bilan ta’minlangan.

Xizmatlar qamrovini kengaytirish maqsadida mobil diagnostika tizimi yo’lga qo’yilib, yetti ming nafarga yaqin bemorda koronarografiya amaliyoti o’tkazildi. Loyiha doirasida reanimatsiya bo’limi, situatsion markaz va kutish zali ham zamonaviy tarzda barpo etildi.

Markazda Samarqand davlat tibbiyot universiteti bilan hamkorlikda kadrlar tayyorlashga ham muhim e’tibor qaratilmoqda. Kardiokirurgiya yo’nalishida klinik ordinatura faoliyati yo’lga qo’yilib, mahalliy mutaxassislarning malakasi oshirilmqda.

Yangi imkoniyatlar tufayli yuqori texnologiyali tibbiy xizmatlar ko’lami sezilarli kengaydi. Xususan, yurak-qon tomir operatsiyalarining soni yil davomida 383 tadan 590 tagacha ortdi.

Davlatimiz rahbariga “Infarkt va insultga qarshi kurash” milliy dasturi taqdimoti davomida yurak-qon tomir va serebrovaskulyar kasalliklar bo’yicha statistika, 5 yillik kasallanish dinamikasi, Yevropa standartlariga mos milliy dasturlar hamda taxriba-sinov loyihasi natijalari haqida axborot berildi.

Ushbu kasalliklarni barvaqt aniqlash, oldini olish va davolash bo’yicha ishlab chiqilgan bemorlarni yo’naltirish (marshrutizatsiya) tizimi taqdimot qilindi.

Prezidentimiz bunday markazlar tibbiy xizmat sifati va aholi salomatligini yaxshilashda muhim o’rin tutishi, Samarqandda yaratilgan tajribani boshqa hududlarda ham ommalashtirish zarurligini ta’kidladi.

Shu bilan davlatimiz rahbarining Samarqand viloyatiga tashrfi yakunlandi.

**Ziyodulla JONIBEKOV,
G’olib HASANOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
Behruz XUDOYBERDIYEV,
O’zA maxsus muxbirlari**

Kun mavzusi



Boshlanishi 1-betda

Prezidentimizning “Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo’yicha kechiktirib bo’lmaydigan chora-tadbirlar to’g’risida”gi farmoni mamlakatimiz ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishi yo’lidagi muhim strategik qadam bo’ldi.

Farmonga muvofiq, poytaxtda ekologik holatni tezkor yaxshilash choralarini ko’rish bo’yicha maxsus komissiya tashkil etilgani hukumatning ekologik muammolari endi yillik hisobot asosida emas, balki operativ boshqaruv va monitoring tizimi asosida hal qilishga o’tganini ko’rsatadi.

Bu nega aynan hozir dolzarb?

So’nggi yillarda poytaxtimizda havo ifloslanishining ortishi, ko’kalamzorlashtirish ko’lamining kamayishi, transport oqimining ko’payishi, qurilish ishlarning keskin faollashuvi ekologik muvozanatni butkul izdan chiqardi. Ushbu sharoitda vaqtinchalik choralar emas, balki muammoni keltirib chiqarayotgan manbani yo’q qilish va tizimli nazorat mexanizmlarini o’rnatish zarurati vujudga kelayotgan edi.

London saboqlari

Yetmish uch yil avval Londonda yuz bergan voqealar bugun Toshkentda va mamlakatimizning boshqa shaharlarida sodir bo’layotgan hodisalarga juda o’xshaydi. Shuning uchun ham insoniyatning atrof-muhitga salbiy ta’siri borasidagi munosabatni butunlay o’zgartirib yuborgan o’sha besh kun haqida aytmoqchiman.

1952-yil dekabrda London bir necha kun zulmatga cho’madi. Ammo bu tin zulmati emas, balki tarixdagi eng yirik ekologik falokatlardan biriga aylangan zaharli tuman edi. Bu fojia insoniyatni o’zi nafas olayotgan havoga yangicha nazar tashlashga majbur qildi va zamonaviy ekologik siyosatga asos soldi.

Falokatga qator noxush holatlar yig’indisi — “mukammal bo’ron” sabab bo’ldi. G’ayrioddiy sovuq ob-havo Buyuk Britaniya poytaxti aholisini uyini tarkibida oltingugur miqdori yuqori bo’lgan sifatsiz ko’mir bilan istishga majbur qildi. Bunga Londonda joylashgan fabrikalar va elektr stansiyalarining ko’mir chiqindisi ham qo’shildi. Shunday vaziyatda



Sherzodxon QUDRATXO’JA,
siyosiy fanlar doktori, professor

shahar uzra havo harakatini to’sib qo’ygan “ob-havo gumbazi” (antitsiklon) hosil bo’ldi. Shamol deyarli yo’q edi. Natijada tunda va qurum buluti yer yuzasiga yaqin joyda turib qolib, tuman bilan aralashib, bo’g’uvchi, quyuvq aralashmaga aylandi.

Shaharda harakat to’xtab qoldi. Ko’rish masofasi bir necha metr gacha pasayib, butun yer usti transportini falajlab qo’ydi. Odamlar o’z uyida nafas ololmay qoldi. Uylardagi havo kuyindi tutunini eslatardi. “Buyuk dudli tuman” bir zumda yo’tal xuruji va nafas olish bilan bog’liq muammolarni keltirib chiqardi.

Dastlab falokat ko’lamini yetarlicha baholay olmagani Buyuk Britaniyaning o’sha paytdagi

Bosh vaziri uchun bu holat jiddiy siyosiy sinov bo’ldi. Hukumat sustkashligi uchun keskin tanqidga uchradi. Jamoatchilikning g’azabi va fojia oqibatlaridan larzaga kelishi hukumatni faolroq harakat qilishga majbur etdi.

Bosim samara berdi. 1956-yili aynan shu fojia ta’sirida Britaniya parlamenti tarixiy “Toza havo to’g’risida”gi qonunni qabul qildi. U shaharlarda eng sifatsiz ko’mir turlaridan foydalanishni taqiqladi va ekologik toza yoqilg’i turlariga o’tishni rag’batlantirdi. Bu toza havo uchun kurashda dunyodagi ilk yirik g’alabalardan biri edi.

Zaharli tutun paydo bo’lishidan oldin deyarli hech kim havo sifatiini muhtazam o’lchamagan. Bugun zararli zarachalar va gazlar konsentratsiyasini kuzatuvchi datchiklar tarmog’i o’sha inqirozdan chiqarilgan saboqlar boshqirib bevosita natijasidir.

Londonning achchiq tajribasi insonning tabiatga salbiy ta’siriga qarshi jiddiy kurashish zarurligini ko’rsatgan birinchi ogohlantiruvchi qo’ng’iroq bo’ldi. Endi o’zimizdagi voqealarga qaytamiz.



EKOLOGIYANI EMAS, O‘ZIMIZNI QUTQARISH FURSATI



Ha, bizda ham “ideal bo’ron”, “qora oqqush” yuzaga keldi. Antitsiklon, inversiya, shamolning deyarli yo’qligi, kechasi past va kunduzi yuqori harorat kuzatildi. Bunga so’nggi yuz yildan ortiq vaqtdagi eng qurq’oqchil yillardan birini va men eslay oladigan buring yillar “irisiz oktyabr” va noyabrning yarmini qo’shing. Bularda inson omayibning ham ulushi katta. Hammasini shundoq ham tinkasi qurigan tabiat gardaniga yuklash mumkin emas.

Qolaversa, to’laligicha inson vijdoniga havola etilgan masalalar — shaharlari ichidagi tartibsiz qurilishlar, issiqxonalarda avtomobil shinalarining yoqilishi, tozalash filtrlariga mutlaqo e’tiborsizlik, suvga ko’jasizlarcha munosabat va shu kunlarda barchamiz ko’p o’qiyotgan boshqa ko’plab antropogen omillar bor.

Agar so’nggi yetti-sakkiz kunlik zaharli tutunli kunlarning birinchi ijibati bo’lsa, bu bundan buyon bunday yashab bo’lmagisini anglashimizdir.

Bu o’rinda Far’angning Buvayda tumanida daraxt kesilishi bilan bog’liq kuzatilgan holatni alohida qayd etish lozim. Binobarin, yuqoridagi bayon etilgan London saboqlari va bundan buyon bunday yashab bo’lmagisini anglashimizga doir fikrimizga uzviy bog’liq ushbu voqea, bir tomondan, odamni chuqur o’yga toldiradi, ikkinchi tomondan esa xursand qiladi.

O’ylantiradigan jihati, yurtimizda ekologik muammo kun tartibidagi eng dolzarb masala sifatida ko’ndalang turgan, daraxtkushlarga ham jinoyatchilarga nisbatan bo’lgani kabi salbiy qarash shakllangan bir sharoitda hokimlik vakili, bo’lib ham tuman hokimi o’rinbosari bu ishga qo’l urgani.

Ijibiy tomoni esa ko’pchilik faollar bundan buyon bunday yashab bo’lmagisini anglagan holda ushbu voqeelika faol pozitsiyasini bildirgani. Natijada Buvayda tumani hokimi o’rinbosariga nisbatan chora ko’rilgani va asossiyi, keng jamoatchilik o’rtasida ekologik huquqbuzarlik jazosiz qolmasligiga doir ishonch paydo bo’layotgani.

Fikrimizcha, mamlakatimizda mavjud ekologik muammoni hal etish maqsadida yashin tezligidagi sa’y-harakatlar boshlandi. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o’zgarishi vazirligining bevosita Prezident Administratsiyasiga bo’sunadigan milliy qo’mitaga aylantirilishi, mamlakatimizning barcha yirik shaharlarini zaharli marjon kabi o’rab olgan sanoat va issiqxona korxonalari uchun yangi qat’iy qoida va talablarning joriy etilishi, qurilishda “shamollar yo’nalishi”ni hisobga olish kabilar shular jumlasidan.

Farmonga muvofiq, Toshkentda qurilish maydonlari nazorati kuchaytiriladi. Bir hafta ichida 500 kvadrat metr va undan katta maydonlarda kompleks tekshiruvlar

o’tkazilib, maydonlarning kamida 25 foizi ko’kalamzorlashtirilgani, suv purkagichlar o’rnatilgani, kirish-chiqish yo’larida avtotransport shinalari qiyiladigan havzalar mavjudligi kabi jihatlar tekshiriladi. Chang va qumning havoga ko’tarilishiga yo’l qo’ymaslik talablari qat’iy nazoratga olinadi.

Katta qurilish maydonlarida monitoring stansiyalari majburiy bo’ladi. Maydoni ming kvadrat metrdan ortiq obyektlarda monitoring uskunalarini o’rnatish hamda Ekologiya va iqlim o’zgarishi milliy qo’mitasi tizimiga ulash qurilishni davom ettirishning asosiy sharti etib belgilandi. Shuningdek, yo’l bo’ylarida daraxt va butalarni muntazam yuvish, ko’p kvartirali uylarda sug’orish uchun rezervuarlar o’rnatish choralarini ko’riladi.

Poytaxtda mikroiklim barqarorligini ta’minlash bo’yicha yirik loyihalar boshlanadi. Uch oy muddatda shaharning to’rt yo’nalishti bo’ylab kamida uchtdan sun’iy ko’l va suv havzasi barpo etiladi. Shu bilan birga, ikki hafta ichida Toshkentdagi favvoralar sonini kamida ikki baravar ko’paytirish bo’yicha alohida dastur ishlab chiqiladi va taqdim qilinadi.

Issiqxonalar bo’yicha nazorat keskin kuchaytiriladi. Bir haftada issiqxonalarni tabiiy gaz bilan ta’minlash bo’yicha shartnomalar tuziladi. Shuningdek, 200 kvadrat metrdan ortiq issiqxonalarda chang tarqatish va ekologik talablarni buzish bilan bog’liq qonunbuzilishlar uchun jarimalar oshiriladi. Yoqilg’i yoqilishi holatlarida esa obyektlarni davlat foydasiga musodara qilishni nazarda tutuvchi jinoyi javobgarlik tartibi joriy etiladi.

2025-yil oxirigacha atmosfera nazorati to’liq modernizatsiya qilinadi. 347 ta avtomatlashtirilgan stansiya xarid qilinib, “Air Monitoring Tashkent” tizimi qo’mita boshqaruviga o’tkaziladi va umummilliy “Air Monitoring Uzbekistan” platformasiga integratsiya qilinadi. Gidrometeorologiya xizmati stansiyalari va “Zamin” fondi o’rnatgan postlar ham yagona monitoring tizimiga ulanadi.

“Yashil” hududlarni ko’paytirish ham rejalashtirilgan. Xususan, 2026-yil 30-noyabrgacha Toshkent shahri va shahar atrofidagi 590 gektar maydonda ikkita yangi botanika bog’i va ikkita dendrologik park barpo etish ko’zda tutilgan. Bu tajriba yurtimizning boshqa shaharlarida ham joriy etilishiga umid qilamiz. Bu shu kecha-kunduzda e’lon qilingan qisqa va uzoq muddatli chora-tadbirlarning bir qismi, xolos.

Ha, bunday ekologik talablarning ko’pi avval ham mavjud bo’lgan, lekin ularning so’zsiz bajarilishi imkoniyati cheklangan edi, nazariyimizda. Aks holda, biz hozirgi ahvolda tushib qolmasdik. Endi esa bu ikki haftalik chang va smog shunchaki izzis ketmasligiga, mamlakatimizdagi ekologik vaziyatda tub o’zgarishlar bo’lishiga umid bor.

Biz esa fuqarolik jamiyati sifatida birlashib, ekologik talablarning eng qat’iy va so’zsiz bajarilishi usidan monitoring va jamoatchilik nazoratini o’rnatishda yordam berishimiz zarur. Faqat birgalikda, birlashibgina havo va tabiatimiz bilan bog’liq vaziyatni yaxshilay olamiz.



YANGI MARKAZIY OSIYONING MINTAQAVIY O‘ZIGA XOSLIGI VA XALQARO-HUQUQIY SUBYEKTLIGI



Akmal SAIDOV,
akademik

Poytaxtimizda 2025-yil 16-noyabr kuni Prezidentimiz raisligida o‘tkazilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi g‘oyat katta tarixiy ahamiyatga ega voqea bo‘ldi. Maslahat uchrashuvi yakunida qabul qilingan hujjatlar va ilgari surilgan tashabbuslarda barqaror, xavfsiz va farovon Markaziy Osiyoni barpo etishdek umumiy maqsad o‘z tajassumini topgani tahsinga sazovor.

Davlatimiz rahbari mintaqaviy hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha qator tashabbuslarni ilgari surdi. Ayni jarayonda “mintaqaviy o‘ziga xoslik” va “mintaqaning xalqaro huquqiy subyekt sifatidagi mavqei” degan yangi tushunchalar lug‘atimizga kirib keldi.

Mintaqaviy o‘ziga xoslik — yangi voqelik

Markaziy Osiyo — O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi. Mintaqamizdagi mustaraklik siyosati tufayli xalqaro lug‘atda “Yangi Markaziy Osiyo ruhi”, “mintaqaviy o‘ziga xoslik”, “mintaqaning xalqaro huquqiy subyekt sifatidagi mavqei” degan iboralar paydo bo‘ldi. Bu o‘rinda, avvalo, Markaziy Osiyoda konstruktiv, yaxshi qo‘shnichilikka asoslangan va o‘zaro



manfaatli munosabatlarni bosqichma-bosqich barpo etish haqida so‘z bormoqda. Xuddi shu yondashuv tufayli so‘nggi yillarda mintaqatubdan o‘zgarani, yangi qiyofa kasb ergani — o‘zaro ishonch va har tomonlama hamkorlik maydoniga aylangani bugun hech kimga sir emas.

Shu nuqtayi nazardan, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi arafasida O‘zbekiston Prezidentining “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” sarlavhali maqolasi matbuotda e‘lon qilingani katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada ham mintaqamiz istiqboliga oid qator yangi g‘oya va fikrlar aytilgan.

Shunday yangi g‘oyalardan biri — “mintaqaviy o‘ziga xoslik” tushunchasini qisqacha tahlil qilaylik. Prezidentimiz keyingi davrda Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligini mintaqaviy yaqinlashuvning yangi bosqichiga olib chiqish borasida turli sohalarida erishilgan natijalarga to‘xtalar ekan, “Asta-sekin Markaziy Osiyoning yangi mintaqaviy o‘ziga xosligi vujudga kelmoqda”, deya e‘tirof etdi.

Bunday mintaqaviy o‘ziga xoslikning mohiyati nimada? O‘zbekiston liderining ta’kidlashicha, “Bu farqli jihatlarimizni e‘tirof etish va ayni paytda xalqlarimizning umumiy

tarixi, mushtarak madaniyatini, taqdirlarimiz o‘zaro bog‘liq ekanini chuqur anglashga asoslanadi. Qo‘shnichilik — xavf emas, imkoniyat, bir tarafning muvaffaqiyati — barchaning yutug‘i degan yagona mintaqaviy makonga mansublik hissi shakllanmoqda”.

O‘zbekiston Prezidenti “Markaziy Osiyo yaqin o‘n yilliklarda qanday rivojlanadi?” degan prinsipial savolga javob berar ekan, yana bir bor “mintaqaviy o‘ziga xoslik” tushunchasiga e‘tibor qaratmoqda. Davlatimiz rahbari, jumladan, bu borada gumanitar hamkorlik ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolayotganini, inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim, ilm-fan va madaniy aloqalarni mustahkamlash markaziy vazifa ekanini qayd etdi.

Yanada muhimi, umumiy axborot makonini yaratish, ta’lim, sog‘liqni saqlash sifatini oshirish, umuman, ijtimoiy sohani, jumladan, turizm va yoshlarga oid qo‘shma dasturlarni rivojlantirish — ularning barchasi xalqlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro anglashuvni mustahkamlashga bevosita xizmat qiladi. Prezidentimizning ta’kidicha, “Umumiy qadriyatlar, madaniy yaqinlik va farovonlikka birgalikda intilishga asoslangan mintaqaviy o‘ziga xoslikni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda”.

Prezidentimiz Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvidagi nutqida “mintaqaviy o‘ziga xoslik” degan yangi tushunchaning mohiyatini yanada teran ochib beradigan yorqin fikr-mulohazalarni bildirdi. Davlatimiz rahbari e‘tirof etganidek, “Murakkab va oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan xalqaro siyosiy jarayonlar sharoitida o‘zaro hamjihatligimiz va bir-birimizni qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ishonchim komilki, bugun biz mintaqamizning Yangi Markaziy Osiyo sifatidagi tarixiy uyg‘onish davri ostonasida turibmiz”.

“Mintaqaviy o‘ziga xoslik” tushunchasining xususiyatlari

O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan diplomatik leksikon va amaliyotga olib kirilgan “mintaqaviy o‘ziga xoslik” atamasining ma’no-mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirib berish uchun qomus va lug‘atlarni varaqlash asnosida muayyan qiyinchiliklarga duch keldik. Nega deganda, bir tomondan,



Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvida mintaqamizning “xalqaro huquqiy subyekt” sifatida yagona mintaqa nomidan ish ko‘rayotgani bilan bog‘liq yangi xalqaro huquqiy voqelik alohida e‘tibor markazida turdi.

bog‘liq. Boshqa manbalarga qaraganda esa “identiklik” atamasini mashhur psixanalitik Zigmund Freyd ilmiy muomalaga kiritgan.

Ayni chog‘da “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “identiklik” tushunchasiga ohangdosh “identifikatsiya” so‘ziga izoh uchraydi. Unga ko‘ra, “identifikatsiya — obyekt yoki shaxsning umumiy va xususiy belgilari majmuiga qarab aynanligini aniqlash”. Shu sababli hozir “o‘ziga xoslik” (“identiklik”) atamasi turli talqinlarda qo‘llanmoqda. Jumladan, uning “o‘zlik”, “o‘ziga xos qiyofaga egalik”, “aslik”, “aynanlik” kabi variantlari ushbu atama aks ettiradigan haqiqiy tushunchani aniqlashtirishga ko‘pincha xalal beradi.

Fandagi ushbu holat nafaqat g‘arblik olimlar, balki o‘zbekistonlik mutaxassislar orasida ham keng tarqalgan. Ayni masalani alohida o‘rgangan olimlarimizning fikricha, O‘zbekistondagi etnologiya, sotsiologiya yoki ijtimoiy (madaniy) antropologiya fanlari yo‘nalishida taqqid o‘tkazaётgan mutaxassislar orasida identiklik, milliy identiklik, etnik identiklik, ijtimoiy identiklik, guruh identikligi, diniy identiklik, etnomadaniy identiklik, identiklik inqirozi, gender identikligi, til identikligi va boshqa mazkur atama bilan bog‘liq zamonaviy so‘zlarga batafsil ta’riflar ishlab chiqilmagan, mavjudlari ham yakuniga yetkazilmagan. Bu atamalarining chegarasi, vazifalari, ahamiyatini aniqlash, tadqiq etish, baholash bo‘yicha metodologik tavsiyalar ham shakllantirilmagan.

Aytmoqchimizki, “mintaqaviy o‘ziga xoslik” (“regionalnaya identichnost”) degan tom ma’noda yangi atamaning tub mohiyatini tushuntirish uchun, avvalo, “o‘ziga xoslik” (“identiklik”) iborasining mazmunini izohlab berish talab etiladi. Shunday ekan, tilshunos, lug‘atshunos va qomusshunos mutaxassislarimizning bu borada muayyan atamani muomalaga kiritishni kutib qolamiz.

Shunday qilib, Markaziy Osiyoning mintaqaviy o‘ziga xosligi deganda nimalarni tushunamiz? Fikrimizcha, ushbu yangi tushuncha zamirida:

- jug‘rofiy yaqinlik;
- umumiy tarix;
- madaniy mushtaraklik;
- diniy omil;
- bag‘rikenglik (tolerantlik);
- qardoshlik va qo‘shnichilik imkoniyatlari;
- xalqlarimiz taqdiri o‘zaro bog‘liqligi kabi yagona mintaqaviy makonga mansublikni tasdiqlaydigan muhim omillar mujassam.

Markaziy Osiyo — xalqaro huquqiy subyekt sifatida: mohiyat va ahamiyat

Yangi Markaziy Osiyoda vujudga kelayotgan yangi mintaqaviy o‘ziga xoslik qanday ahamiyatga ega? Gap shundaki,

mintaqaviy jipslashuv borasidagi ayni shunday muhim yutuqlar tufayli bugun Markaziy Osiyo xalqaro munosabatlarning manfaatlari va taraqqiyot yo‘llarini aniq tasavvur etadigan mustaqil va mas’uliyatli ishtirokchisi sifatida shakllandi. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Markaziy Osiyo plyus” hamkorlik formatlari mintaqaning xalqaro huquqiy subyekt sifatidagi mavqei kuchayib borayotganining ifodasi hamda barqarorlik va taraqqiyotning muhim markazi sifatidagi rolining e‘tirofi bo‘ldi”.

Chindan ham ilgari tashqi hamkorlar aloqalarni asosan ikki tomonlama asosda qurgan bo‘lsa, bugun yetakchi davlat va birlashmalar Markaziy Osiyo bilan munosabatlarni yaxlit mintaqaviy sherik sifatida rivojlantirmoqda. Bu mintaqaning boshqa hamkorlar bilan munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqadi, deya qayd etadi Prezidentimiz. Yangi Markaziy Osiyo tashqi hamkorlar bilan xalqaro munosabatlarning yagona subyektii sifatida muloqot qilsa, uning ovozi balandroq va ishonchliroq yangraydi, pozitsiyamiz kuchliroq bo‘ladi. Investitsiyalarni jalb etish, boshqa mamlakatlar bilan barcha yo‘nalishda hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha vazifalarni yanada samarali hal qila olamiz.

Boshqacha aytganda, Markaziy Osiyo davlatlari keyingi davrda BMT, SHHT, MDH, TDT kabi hamkor xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlarda nafaqat mustaqil va suveren davlat maqomida, balki yuridik tilda aytganda, “xalqaro huquqiy subyekt” sifatida yagona mintaqa nomidan ham dadil va yakdli ish ko‘rayotgani juda muhim. Zero, “xalqaro huquqiy subyekt”ga aylanishning tub asosi va tayanchi mintaqaviy o‘ziga xoslikdirl.

“Xalqaro huquqiy subyekt” nima degani?

Xalqaro yuridik shaxs, ya’ni “xalqaro huquq subyektii” instituti xalqaro huquqdagi eng qadimgi institutdur. Yangi mustaqil davlatlar paydo bo‘lishining hozirgi bosqichi, asosan, XX asr 90-yillari boshida Markaziy va Sharqiy Yevropada sotsialistik hamjamiyat va alohida davlatlarning parchalanishi shaklida yuz berdi.

Bu o‘rinda uchta federatsiya — sobiq ittifoq (1991-yil), YUSFR (Yugoslaviya sotsialistik federativ respublikasi, 1991-1992-yillar), Chexoslovakiya (1993-yil) va bitta unitar davlat — GDR (1990-yil) barham topgani haqida so‘z bormoqda. Biroq sobiq sotsialistik federatsiyalar o‘mida shakllangan yangi mustaqil davlatlarni tan olishning boy xalqaro huquqiy amaliyoti xalqaro huquq fanida chuqur ilmiy tahlil etilmadi va munosib baho olmadi.

Vaholanki, XX asr 90-yillari boshidan zamonaviy dunyoda qator global o‘zgarishlar, xususan:

- sobiq ittifoq, Yugoslaviya, Chexoslovakiyaning parchalanishi;
- xalqaro huquq subyektii bo‘lgan yigirmadan ortiq yangi mustaqil davlatning paydo bo‘lishi;
- yangi mustaqil davlatlarning xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinishi va ular bilan diplomatik aloqalar o‘rnatilishi;
- ushbu mustaqil davlatlarning xalqaro tashkilotlar faoliyatiga faol jalb etilishi kabi olamshumul voqealar ro‘y berdi.
- Bu g‘oyat muhim omillar:
- birinchidan, “xalqaro huquq subyektii” institutiga e‘tiborni tubdan oshirdi;
- ikkinchidan, mustaqil davlatlar xalqaro-huquqiy e‘tirof etilishining ahamiyatini yanada kuchaytirdi;
- uchinchidan, yangi davlatlarning xalqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘lishi, shuningdek, xalqaro-huquqiy siyosat yuritishiga nisbatan ilmiy va amaliy qiziqishning dolzarb ahamiyatini baralla namoyon etmoqda.



Buni bir qancha sabablar bilan izohlash mumkin.

Birinchii sabab — yangi davlatning paydo bo‘lishi nisbatan kam uchraydigan hodisadir. Insoniyat olis tarixining sanoqli davrlaridagina qisqa muddatda bu tahlit ko‘p sonli yangi davlatlarning tashkil topishi tajribasi kuzatilgan.

Ikkinchi sabab — yangi davlat tashkil topishi va xalqaro huquqiy tan olinishi har doim alohida davlatlar va xalqaro hamjamiyatga a‘zo davlatlar hamjamiyatlarining to‘qnashuvi bilan bog‘liq bo‘ladi. Jumladan, yangi davlatning boshqa davlatlar tomonidan e‘tirof etilishi va BMTga a‘zo bo‘lishi aslida xamirdan qil sug‘urgandek oson kechmaydi.

Uchinchi sabab — xalqaro yuridik shaxs va xalqaro huquqiy e‘tirof institutlari kodifikatsiyalanmagan bo‘lib, asosan, huquqiy normalarni qamrab oladi. Ushbu

xalqaro-huquqiy institutlarning ayrim jihatlarini manfaatdor tarafdorlarning ko‘p va ikki tomonlama kelishuvlari, xalqaro tashkilotlarning qarorlari, shuningdek, alohida davlatlarning diplomatik hujjatlarini bilan tartibga solinadi. Xalqaro odatlar, umumiy tamoyillar va ta’limotlar — xalqaro yuridik shaxs, xalqaro huquqiy e‘tirof institutlari va xalqaro huquqiy siyosat tayanadigan asosiy poymdevor mana shulardirl.

Davlatlar xalqaro huquqiy subyektligining asosi ularning o‘ziga xos davlat suverenitetidir. Bu, o‘z navbatida, tegishli xalqning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini amalga oshirishidan kelib chiqadi. Xalqaro munosabatlarda faqat mustaqil suveren davlatlarga universal yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan xalqaro huquqning teng huquqli ishtirokchilari sifatida harakat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro huquqiy maqomi xalqaro hamjamiyatda suveren davlat sifatida, bir tomondan, ega bo‘lgan huquqlari, ikkinchi tomondan, zimmasiga olgan majburiyatlarining chambarchas bog‘liqligidan iborat. Mamlakatimiz xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyektii ekanini tasdiqlaydigan qator xususiyatlar mavjud.

O‘zbekistonning xalqaro huquqiy siyosatini samarali amalga oshirish ko‘p jihatdan xalqaro huquqiy sohadagi ustuvor yo‘nalishlar va yo‘nalishlarning to‘g‘ri belgilanishiga bog‘liq. ularning barchasi, shubhasiz, davlatimiz oldida turgan mintaqaviy va jahon miqyosidagi eng muhim vazifalarni hal etishga katta yordam beradi.

Markaziy Osiyo davlatlarining xalqaro huquqiy siyosati haqida fikr yuritganda, haqiqatan, mintaqaviy jipslashuv borasidagi yutuqlar tufayli bugun Markaziy Osiyo xalqaro munosabatlarning o‘z manfaatlari va taraqqiyot yo‘llarini aniq tasavvur etadigan mustaqil va mas’uliyatli ishtirokchisi sifatida qaror topganini ta’kidlash lozim. Zero, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “biz devor emas, ko‘priklar barpo etmoqdamiz”.

O‘z navbatida, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari xalqaro huquqiy subyektii sifatida:

- BMT, YXHT, SHHT, MDH va boshqa xalqaro tashkilotlarga a‘zo;
- asosiy xalqaro huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qilgan;
- BMT Bosh Assambleyasida mintaqamizga oid rezolyutsiyalarni ilgari surish borasida birga ishlamoqda;
- BMTning ustav va shartnomaviy organlarida o‘zaro hamkorlik qilmoqda.

Muhimi, Markaziy Osiyoning har bir davlati o‘z sa’y-harakatlarini iqtisodiyotni rivojlantirish, ishonchni mustahkamlash va mintaqaviy hamkorlikni kengaytirishga yo‘naltirish orqali mintaqamiz barqarorligi



Ibrohim ABDURAHMONOV,
qishloq xo‘jaligi vaziri

Boshlanishi 1-betda

Tomchida hayot aks etadi

Qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan samarali foydalanish va unumdor maydonlarni kengaytirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida joriy yilda hududlarda 61 ming gektar yer foydalanishga kiritildi. Yer osti suv zaxiralardan foydalangan holda ilgari deyarli hosil yetishtirish imkonini bo‘lmagan 10,9 ming gektar lalmi-yaylov yer o‘zlashtirildi.

Bundan tashqari, 16,1 ming gektar lalmi-yaylov maydonlarda kam suv talab qiladigan ekinlar joylashtirildi. Bu yangicha yondashuv suv resurslarini tejash, iqlim o‘zgarishi sharoitida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Suvdan oqilona foydalanish, yerning iqtisodiy qiymatini oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash borasida yangi bosqichga qadam qo‘yildi. Zero, bugungi zamon, vaziyat talabi shunday. Chunki ayni paytda dunyo bo‘ylab suv resurslari tobora qisqarib bormoqda. Iqlim o‘zgarishi, harorat oshishi, yog‘ingarchilik kamayishi tufayli suv taqchilligi sezila boshlandi. Ushbu sharoitda yurtimizda suv tejoychi texnologiyalarni keng joriy etishga strategik vazifa sifatida qaralayotgani diqqatga sazovor. Endi suvdan oqilona foydalanish masalasi nafaqat qishloq xo‘jaligi, balki yurtimiz iqtisodiy xavfsizligining eng muhim vazifasiga ayladi.

Mamlakatimizdagi jami suv sarfining qariyb 90 foizi qishloq xo‘jaligiga to‘g‘ri keladi. Shu bois, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali suvni tejash, tuproq unumdorligini oshirish va mahsulot tannarxini pasaytirish asosiy maqsadlardan biriga aylanadi.

Joriy yilning o‘zida 838 ming gektar maydonda suv tejoychi texnologiyalar joriy etildi. Bu o‘tgan yildagidan 1,3 barobar ko‘pdir. Ya‘ni 8 milliard kub metr suv tejaldi. Qisqa aytganda, suv tejoychi tizimlarni keng joriy etish faqat iqtisodiy chora emas, balki milliy ma‘naviy burchimizdir.

Tabiat va mehnat uyg‘unligi

Mamlakatimizda ekologik barqarorlikni ta‘minlash, aholining turmush sifatini yaxshilash va qishloq xo‘jaligi salohiyatini oshirishda mevali bog‘lar hamda tokzorlarning ahamiyati



Yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy, milliy modelini yaratish yo‘lida izchil va qat’iy siyosat yuritilmoqda. Birgina misol, kompayens xizmatlar korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va oldini olishga xizmat qilmoqda. Xususan, Navoiy kon-metallurgiya kompaniyasida Prezidentimizning 2021-yil 6-iyuldagi qaroriga muvofiq, 2021-yildan boshlab 15 ta shtat birligida kompayens xizmati tashkil etilgan edi. Xizmat oldiga qator muhim vazifalar qo‘yilgan. Korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlab, oldini olish, shuningdek, unga zamin yaratadigan holat va sabablarni bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, muhimi, korrupsiyaga murosasiz munosabat shakllantirish choralarini ko‘rish shular jumlasidan. Mazkur vazifalarni samarali bajarishda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat va jamoat tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikda ish yuritilmoqda.

katta. Bugun barcha toifadagi xo‘jaliklarda 367,5 ming gektar mevali bog‘ va 220 ming gektar tokzor mavjud. Faqat joriy bahorda 17,2 ming gektar mevali bog‘ va 6,3 ming gektar uzumzor barpo etildi. Bu yillik rejaning mos ravishda 57 va 58 foizini tashkil etadi.

Iqtisodiy jihatdan samarasiz va kam hosilli bo‘lib qolgan 18,8 ming gektar bog‘ hamda 6,8 ming gektar tokzor zamonaviy texnologiyalar asosida rekonstruksiya qilindi. Mazkur ishlar hosildorlikni 25 foiz oshirish imkonini berdi.

Bahorda umumiy hisobda 66,8 million tup ko‘chat va qalamcha ekildi. Barcha ekish ishlari “Yashil makon.yeco” raqamli platformasi orqali qayd etildi hamda har bir ko‘chatning joylashuvi, sug‘orilishi va parvarishi elektron tarzda nazoratga olindi. Ekologik tashabbuslar faqat ishlab chiqarish miqyosida emas, balki fuqarolar faolligi orqali ham amalga oshirilayotgani e‘tiborga molik jihat. Joriy yil bahorda vazirlik va tizim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan 5,6 ming xodim o‘z yashash hududlarida 66,7 ming dona mevali va manzarali ko‘chatlar ekishga o‘z hissasini qo‘shdi. Bu faqat daraxt ekish emas, xalqimizning vatanparvarlik va tabiatga ehtirom an‘analariga amaliy misol bo‘ldi.

Tabiatni asrash, havo sifatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar “Yashil makon” harakatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu ekologiyaga ijobiy hissa qo‘shish bilan birga iqtisodiy va ijtimoiy samara ham keltiradi. Ya‘ni har bir ekilgan ko‘chat ertangi barqaror hayotning poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Paxtachilikda ilg‘or texnologiya

Qishloq xo‘jaligida paxtachilik sohasini ilmiy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Hosildorlikni oshirish, suv va resurs tejamliligini ta‘minlash, sho‘rlanish, qurg‘oqchilikka chidamli navlarni kengaytirish orqali sohanang barqaror o‘sishiga erishish ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan. Shundan kelib chiqib, joriy yilgi hosil uchun soha olimlari tavsiyalari hamda mahsulot yetishtiruvchilar taklifi asosida 875,6 ming gektar maydonda chigit ekildi. Bu o‘tgan yildagidan 136 ming gektar kam. Lekin maydonlar sifat jihatidan optimallashtirildi. Yerga jami 31 ta rayonlashgan,

20 ga yaqin xorijiy va 30 dan ortiq istiqlolli g‘o‘za navi chigitlari ekildi. Ular orasida tuproq-iqlim sharoitiga moslashgan, suvsizlik va sho‘rga chidamli, ertapishar, serhosil hamda tola sifati yuqori 10 ta yangi mahalliy g‘o‘za navi alohida ahamiyat kasb etdi. Mazkur navlar maydoni 220 ming gektarga (ya‘ni umumiy maydonning 25 foiziga) yetdi — bu o‘tgan yildagidan 10 ming gektar ko‘p.

Yurtimizda paxtachilikda Xitoy-Shinjon tajribasi keng joriy etilmoqda. Bu plynka ostiga tomchilatib sug‘orish usulidagi 76 santimetrl qo‘shqator sxema bo‘lib, suv tejash, yer namligini uzoqroq saqlash va g‘o‘za ildiz tizimi rivojlanishini rag‘batlantiradi. Xususan, 76 santimetrl qo‘shqator ekish sxemasi joriy etilishi sohadagi eng muhim innovatsiyalarning

biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Bu tizim yerdan samarali foydalanish, ya‘ni gektariga qo‘shimcha 120-140 ming ko‘chat joylashtirish imkonini beradi.

Paxtachilikda “Shinjon texnologiyasi” suvni tejab, hosildorlikni 15-20 foizgacha oshirish imkonini bermogda. Shuningdek, plynka ostidagi muhit tuproq haroratini barqaror ushlab turishga yordam beradi, bu esa g‘o‘za ildizini kuchaytirib, tola sifatini yaxshilaydi. Joriy yilda aynan “Shinjon texnologiyasi” asosida 181 ming gektarda paxta yetishtirildi. Ushbu tajriba tufayli qo‘shimcha 1,2 million tonna paxta hosili olindi.

Innovatsiya va



ilmiy yondashuv — barqaror hosil poydevori

G‘allachilikdagi ilmiy va texnologik yangilanishlar samarasi ham tobora yaqqol namoyon bo‘lmoqda. 2025-yil hosili uchun 1,2 million gektarda, shundan 997 ming gektari sug‘oriladigan va 224 ming gektari lalmi yerlarda boshqoqli don ekinlari ekilib, ilg‘or agrotexnik tadbirlar asosida parvarishlandi.

Bu yil ilmiy yondashuv asosida muhim



urug‘lik don maxsus sovitkichli omborlarda +1...+5°C haroratda 40-45 kun saqlanib, fiziologik tayyor holatga keltirildi. Shundan so‘ng bu urug‘lik tajriba-sinov tariqasida 31 ta tumandagi 62 ta fermer xo‘jaligining 1,1 ming gektar yerida ekildi. Ko‘rilgan tizimli choralar natijasida fermer xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan 8,4 million tonnadan ortiq don hosili olindi. Sug‘oriladigan maydonlarda o‘rtacha hosildorlik 84 sentnerdan ortiqni tashkil etdi. 9,8 ming fermer xo‘jaligida 90-95 sentner, ayrim tajribali fermerlar esa 100 sentnergacha paxta xomashyosi olishga erishdi.

Mozambik, Malta va Kot-d’Ivuar davlatlari qo‘shildi.

Eksport mahsulotlari tarkibida meva-sabzavot, yeryong‘oq va yong‘oqlar, mosh va poliz mahsulotlari yetakchi o‘rinni egallamoqda. Ayniqsa, o‘zbek zaminida yetishtirilgan anor, gilos, qovun, pomidor va quritilgan mevalarga xorij bozorlarida talab yuqori bo‘lmoqda. Bunday keng ko‘lamli eksport natijalari yurtimiz agrosanoat kompleksini rivojlantirish, eksportbop mahsulotlar yetishtirishni rag‘batlantirish, logistika va sertifikatlash tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan izchil islohotlar samarasidir.

Eksport hajmini oshirish uchun sifat va barqarorlik asosiy mezon hisoblanadi. Bugungi kunda 1800 ga yaqin korxonamiz “Global G.A.P.”, “HALAL”, “Organic” kabi xalqaro sertifikatlarni olgan. Bu ham mahsulotlarimiz xalqaro bozorlarda tan olinishi hamda eksport salohiyati izchil o‘sishini ta‘minlayapti. Mahsulot yetishtirish bilan birga uni eksportga tayyorlash ham muhim. Bu yo‘nalishda mamlakatimizda sovitkich omborlar, logistika markazlari va qayta ishlash zavodlari soni keskin oshgani ayni muddao bo‘lmoqda. Shu bois, joriy yilda respublikamizda qiymati 749,4 milliard so‘mlik, quvvati 115 ming tonna bo‘lgan 7 ta agrologistika markazi hamda qiymati 185,1 milliard so‘mlik, quvvati 14 ming tonna bo‘lgan 26 ta zamonaviy sovitkichli ombor foydalanishga topshirildi. Natijada agrologistika markazlari soni 95 taga, umumiy quvvati 1412 tonnaga, sovitkichli omborlar soni esa 2077 taga, quvvati 1 million 351 ming

tonnaga yetkazildi. Bu ko‘rsatkichlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini uzoq muddat saqlash, tashqi bozorga yetkazishdagi yo‘qotishlarni kamaytirish va eksport hajmini barqaror oshirish imkonini bermogda.

Eksportbop mahsulot yetishtirish bilan birga qishloq xo‘jaligida qayta ishlash sohasi izchil rivojlanmoqda. Xususan, 2025-2026-yillarda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish bo‘yicha 10,5 trillion so‘mlik 675 ta loyiha amalga oshirilishi belgilangan. Bugungi kunga qadar qiymati 2,7 trillion so‘mlik 290 ta yangi loyiha ishga tushirildi hamda 3700 dan ziyod ish o‘rni yaratildi. Ushbu loyihalar nafaqat ichki bozorni qo‘shimcha mahsulotlar bilan ta‘minlash, balki eksport hajmini ko‘paytirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Bir tarmoq — ming imkoniyat

Chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va asalarichilik tarmoqlaridagi keng ko‘lamli islohotlar oziq-ovqat xavfsizligi va ichki bozorda mahsulotlar barqarorligini ta‘minlash hamda eksport salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, joriy yilning o‘zida chorvachilik yo‘nalishida qiymati 2,7 trillion so‘mlik 698 ta loyiha amalga oshirildi. Chet davlatlardan 157 ming bosh qoramol va 111,7 ming bosh qo‘y-eчки olib kelinib, mahalliy genofondni boyitish ishlari yo‘lga qo‘yildi.

Chorva ozuqasi bazasini mustahkamlash maqsadida 447,6 ming gektarda ozuqabop ekinlar yetishtirildi.

Parrandachilikda ham joriy yilda qiymati 777 milliard so‘mlik 100 ta loyiha ro‘yobga chiqarilib, 161 million bosh parranda yetishtirish quvvati yaratildi va 627 ta yangi ish o‘rni ochildi. Baliqchilik yo‘nalishida 303,4 milliard so‘mlik 110 ta loyiha ishga tushirilib, 568 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Shu bilan birga, sohada 15 million dollarlik to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiya o‘zlashtirildi. Qiymati 25,4 milliard so‘mlik 23 ta loyiha asosida 2,8 ming asalari olassi tashkil etildi.

“Har bir oila — tadbirkor” dasturi doirasida 68,2 milliard so‘m imtiyozli kredit ajratildi va 2,9 ming xonadonga 70 mingdan ortiq asalari oilasi yetkazil berildi.

Bugungi kunda O‘zbekiston asal mahsulotlari ham tashqi bozorda o‘z o‘mini topmoqda — Rossiya, Qozog‘iston, Tojikiston va Armanistonga 3,3 million dollarlik asalari paketlari eksport qilindi. Tarmoqlardagi ushbu yondashuvlar, samarali loyihalar va ilmiy asoslangan tajribalar qishloq xo‘jaligini iqtisodiyotning yetakchi hamda barqaror sohalardan biriga aylantirmogda.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligidagi islohotlar nafaqat tarmoq samaradorligini oshirish, balki oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, eksport salohiyatini kuchaytirish va fermer mehnatiga munosib bahoni shakllantirishga qaratilgan. Biroq har qanday islohot samarasi, avvalo, ijrosi bilan o‘lchanadi. Har bir rahbar, har bir mutaxassis o‘z vazifasiga vijdonan yondashsa, har bir qoroning hayotiy qiymati yuzaga chiqadi. Buni ta‘minlashda fuqarolar murojaatlari bilan samarali ishlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hududlarda tashkil etilayotgan sayyor qabullar ham aholi bilan muloqot madaniyatini yangi bosqichga ko‘tarmoqda. Joriy yilning o‘zida 5 mingdan ortiq fuqaro ishtirok etgan shunday qabullarda 1000 dan ziyod muammo va takliflar ijobiy hal etildi. Bu faqat raqam emas — har bir hal etilgan murojaat ortida inson taqdiri hamda jamiyat ishonchi yotadi.

Fuqarolar murojaatlarni tezkor qabul qilish maqsadida vazirlikka “Ishonch telefoni” ishga tushirilgan. Bundan tashqari, jamoatchilik bilan ochiq muloqotni ta‘minlash uchun “Qishloq xo‘jaligi vaziriga murojaat” nomli telegram guruhi tashkil etilgan. Bu guruh orqali yuzlab murojaatlar bevosita joyida yechim topmoqda. Fuqarolarning fikri, taklifi yoki shikoyati endi uzoq byurokratik yo‘lini bosib o‘tmaydi — elektron tarzda tez yetib boradi, tez javob oladi. Natijada vazirlikka kelib tushayotgan qog‘oz murojaatlar soni sezilarli darajada kamaydi, murojaatlarni ko‘rib chiqish muddati esa bir necha barobar qisqardi.

Bugunning gapi

SHAFFOFLIK BOR JOYDA HALOLLIK VA BARAKA BO‘LADI



— Joriy yil yanvarda kombinatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini yanada oshirish, ochiqchilik va shaffoqlikni ta‘minlashga qaratilgan 24 banddan iborat kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Dasturda belgilangan vazifalar ijrosi bosqichma-bosqich to‘liq ta‘minlanmoqda, — deydi “NKMK” AJ kompayens xizmati

boshlig‘i Rustam Avezov. — Shu bilan birga, 2024-yil 25-dekabrda jamiyat tizimida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini kuchaytirish maqsadida 9 banddan iborat “yo‘l xaritasi” tasdiqlangan. Ushbu hujjatda belgilangan vazifalar ijrosi doimiy nazoratga olingan. Kombinatta qabul qilinayotgan har bir buyruq, har bir hujjatning

shaffof va qonuniy bo‘lishiga alohida e‘tibor beriladi. Joriy yilda jamiyat boshqaruviga kiritilgan 93 ta hujjat loyihasi hamda fuqarolar qabuli bo‘yicha 32 ta bayonnom korrupsiyaviy ekspertizadan o‘tkazildi. Bitta murojaat bo‘yicha hozir o‘rganish ishlari davom etmoqda.

— Xodimlarning malakasini oshirish, kompayens tizimini kuchaytirish va xalqaro standartlarni joriy etishga alohida e‘tibor qaratyapmiz, — deydi kompayens xizmati yuristi Bahodir Toshhev. — Joriy yilda xodimlarimiz 14 ta an‘anaviy va xalqaro maxsus o‘quv kursida faol ishtirok etdi. Xususan, Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish akademiyasi o‘tkazgan qator o‘quv dasturlari, “ISO 37001:2025” xalqaro standartining yangi versiyasini qo‘llash hamda kompayens va risklarni boshqarish yo‘nalishida, Huquqni muhofaza qilish akademiyasining virtual akademiya elektron platformasida tashkil etilgan o‘quv kurslari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va BMTning Taraqqiyot dasturi doirasida hamda Buyuk Britaniyadagi “MBF Academy” tomonidan tashkil etilgan nufuzli malaka oshirish kurslarini muvaffaqiyatli yakunlab, sertifikatlarni qo‘lga kiritdi. Malaka oshirish bo‘yicha qilingan ishlar xodimlarimizning professional salohiyatini yanada mustahkamlab, korrupsiyaga qarshi samarali tizimni shakllantirishda muhim qadam bo‘ldi.

Jamoatchilik fikri va ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik sohadagi islohotlarning ochiq va natijador bo‘lishiga xizmat qiladi. Kombinatta ochiqchilik va jamoatchilikka hisobdorlikni ta‘minlash maqsadida www.nkmk.uz rasmiy veb-sayti hamda kombinat xodimlari uchun joriy etilgan ichki portal orqali “Korrupsiyaga qarshi kurashish” hamda “Ochiq ma‘lumotlar” bo‘limlari muntazam yangilab borilmoqda. Unda ichki me‘yoriy hujjatlar, ochiq e‘lon qilinishi lozim bo‘lgan ma‘lumotlar,

vaqtda hal etildi. Qolaversa, yuridik va jismoniy shaxslardan kelib tushgan 46 ta murojaat atroflicha o‘rganilib, ulardan 40 tasiga huquqiy tushuntirish berildi. Beshta murojaat qisman qanoatlantirildi. Bitta murojaat bo‘yicha hozir o‘rganish ishlari davom etmoqda.

— Xodimlarning malakasini oshirish, kompayens tizimini kuchaytirish va xalqaro standartlarni joriy etishga alohida e‘tibor qaratyapmiz, — deydi kompayens xizmati yuristi Bahodir Toshhev. — Joriy yilda xodimlarimiz 14 ta an‘anaviy va xalqaro maxsus o‘quv kursida faol ishtirok etdi. Xususan, Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish akademiyasi o‘tkazgan qator o‘quv dasturlari, “ISO 37001:2025” xalqaro standartining yangi versiyasini qo‘llash hamda kompayens va risklarni boshqarish yo‘nalishida, Huquqni muhofaza qilish akademiyasining virtual akademiya elektron platformasida tashkil etilgan o‘quv kurslari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va BMTning Taraqqiyot dasturi doirasida hamda Buyuk Britaniyadagi “MBF Academy” tomonidan tashkil etilgan nufuzli malaka oshirish kurslarini muvaffaqiyatli yakunlab, sertifikatlarni qo‘lga kiritdi. Malaka oshirish bo‘yicha qilingan ishlar xodimlarimizning professional salohiyatini yanada mustahkamlab, korrupsiyaga qarshi samarali tizimni shakllantirishda muhim qadam bo‘ldi.

Jamoatchilik fikri va ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik sohadagi islohotlarning ochiq va natijador bo‘lishiga xizmat qiladi. Kombinatta ochiqchilik va jamoatchilikka hisobdorlikni ta‘minlash maqsadida www.nkmk.uz rasmiy veb-sayti hamda kombinat xodimlari uchun joriy etilgan ichki portal orqali “Korrupsiyaga qarshi kurashish” hamda “Ochiq ma‘lumotlar” bo‘limlari muntazam yangilab borilmoqda. Unda ichki me‘yoriy hujjatlar, ochiq e‘lon qilinishi lozim bo‘lgan ma‘lumotlar,

murojaatlar uchun aloqa kanallari, ijtimoiy videolavhalar va mas‘ul xodimlar haqidagi ma‘lumotlar jamoatchilik uchun ochiq tarzda joylashtirib kelinmoqda. Bu esa fuqarolar va hamkorlar uchun yanada shaffof va ishonchli muhit yaratishga xizmat qilmoqda.

— Jamoada huquqiy ong va dunyoqarashni shakllantirishda targ‘ibot muhim ahamiyatga ega. Xodimlar orasida ochiq muloqotni kengaytirish maqsadida yil davomida uzluksiz targ‘ibot-tashviqot ishlarni olib boryapmiz, — deydi kompayens xizmati shu bo‘lshig‘i Azamat Bozorov. — Xususan, OAV vakillari hamda jamoatchilik ishtirokida qator seminar va brifnglar o‘tkazilib, jamiyat faoliyatiga oid dolzarb masalalar yuzasidan atroflicha axborot berib borilmoqda. Qolaversa, matbuotda ham chiqishlar tashkil etilayotgani fikrimiz isbotidir. Hozir 10-noyabrdan 10-dekabrgacha “Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi” va “Ochiq eshiklar kuni” tadbirlari yuqori sayviyada o‘tkazilmoqda. Bu ham barchamizni bir maqsad yo‘lida birlashtirib, hamijahat va hamfkr bo‘lishga da‘vat etmoqda. Bunday tadbirlarda kombinatning ko‘p sonli ishchi-xodimlari faol ishtirok etyapti. Bu jarayonda ularga korrupsiyaning oqibatlari, jamiyat taraqqiyotiga zarari hayotiy misollar asosida tushuntirib berilmoqda.

Har bir sohada shaffoqlik ustuvor bo‘lsa, illatlarga qarshi tizimli choralar kuchaytirilsa, jamiyatda halollik madaniyati qaror topadi. Bu, o‘z o‘rnida, korrupsiyaning ildizini qirqishga qaratilgan ishlar samaradorligini yanada oshiradi. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadordlik jamiyati kompayens xizmati xodimlari ana shunday ezigu maqsad yo‘lida xizmat qilmoqda.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Sun'iy intellekt hayotimizga shu darajada chuqur kirib bormoqdaki, qaysi sohada faoliyat yuritilmasin, albatta, unga murojaat qilishga majbur bo'ladi kishi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, bank-moliya, madaniyat — u kirib bormagan jabhaning o'zi yo'q. Eng qizig'i, sun'iy intellekt tobora takomillashib, har kuni yangi qirralarini namoyish etyapti va insoniyatni o'ziga mahliyo qilib qo'ymoqda. Shu bilan birga, u munozaralarning asosiy mavzusiga ham aylangan. Kimdir uning ish samaradorligini oshirib, iqtisodiyotga katta foyda olib kelayotganini maqtasa, kimdir ishsizlikni ko'paytirayotgani, ish sifati pastligi va boshqa salbiy jihatlarini sanashga tushadi.



Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Ammo bu munozaralardan zig'ircha ham foyda yo'q. Chunki 20-30 yil oldin internet qanchalik muhokama qilinmasin, salbiy jihatlar sanalmasin, baribir yil sayin ommalashib bordi. Hatto qisqa fursatda takomilning cho'qqisiga chiqib, bugun o'rmini sun'iy intellektga bo'shatib ham bermoqda. Zamonaviy texnologiyalarni maqtaganlar ham, yomonlaganlar ham foyda ko'rmaydi. Aksincha, yangilikni tezroq o'zlashtirganlar, hayot tarzi, ish faoliyatini unga moslashtirganlar yutadi. Yaqinda Prezidentimiz davlat boshqaruvi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida “...Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya bosqichiga — sun'iy intellekt davriga dadil qadam qo'ymoqda. Qaysi soha bo'lmasin, kim bu jarayonda qattiq izlanib, aniq natija qilsa, bir qadam oldinda yursa, marra shuniki bo'ladi”, deya to'g'ri ta'kidladi.

So'zsiz, zamonaviy texnologiyalardan faol foydalanish davr talabi. Lekin yana bir mulohaza bor. Bu yangi sivilizatsiya bosqichi, sun'iy intellekt davri insonlari yetuk kadr bo'lishi uchun qanday yo'l tutishi, nimalarni o'qib-o'rganishi zarurligi masalasidir. Chunki bugungi yoshlar faqatgina bir-biri bilan emas, zamonaviy sun'iy intellekt texnologiyalari bilan ham raqobatda yutqazib qo'ymasligi talab etiladi.

Yettinchi tuyg'u qadri

Qadim zamonada bir boy o'g'lini o'z shahridagi eng mashhur ulamoning yoniga shogirdlikka olib borib, bor ilmini o'rgatishini so'rabdi. Alloma esa o'smir bilan suhbat qurib, uning otasiga bir oz kechikkanini, o'g'lga bor ilmni o'rgata olishi, ammo u zako ahli safidan joy ololmasligini aytibdi.

— Nega? — deya ajablanibdi ota.

— Chunki uning fahm-farosati kam. Farosat insonda tug'ma bo'ladi yoki juda kichik yoshlardan shakllantiriladi, — deya javob beribdi ulamo.

Ota esa ulamoning so'zlariga quloq tutmay, o'g'lini shogirdlikka olishini o'tinib so'rabdi. Ulamo chorasiz rozi bo'libdi. Ota uch-to'rt yildan so'ng o'g'lini ko'rgani kelibdi. Suhbat asnosida uning qanchalik ilm olganini sinab ko'rmoqchi bo'libdi. Kaftiga bitta marjonni berkitib, o'g'lidan “Qo'lmda nima bor?” deya so'rabdi. Bola o'rgangan bor ilmini ishga solib, otasi ko'lidagi matoh yumaloq ekanini topibdi. Otaning quvonchdan boshi ko'kka yetibdi va o'g'lga so'roq nigohi bilan boqibdi. Bola yana turli amallarini ishga solib, uning o'trasi

teshik ekanini aniqlabdi, ammo xulosa berishda adashib, otasining kaftida marjon shodasi emas, tegirmon toshi borligini aytibdi.

Otaning hafsalasi pir bo'lib, ulamoning o'g'lini yetaklab kelganda aytgan so'zlarini yodga olibdi. Alqissa, shogirdning to'rt yil o'rgangan bilimi otasining qo'lidagi buyum shaklini aniqlashga yetibdi-yu, ammo tegirmon toshining kaftga sig'masligiga fahmi yetmadbi...

Ba'zan sun'iy intellekt asosida ishlaydigan ChatGPTdan biror ma'lumotni so'rasam, butunlay aloqasi yo'q jumlamani qalashtirib tashlaydi. Shunday vaziyatda yuqoridagi rivojat xayolindan o'tadi. Ayrimlar u takomillashib boryapti, keyinchalik kamchiliklari yo'qoladi demoqda. Bo'lsa bordin, ammo nazmdimda, baribir sun'iy intellekt har qancha takomillashmasin, mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, xulosa berishda inson aqliga yeta olmaydi. Chunki u tahlil qilishda quuruq ma'lumotlarga tayanadi. Inson omili, favqulodda holatlarni inobatga ololmaydi. Bir so'z bilan aytganda, texnologiyada inson to'g'ri qaror qabul qilishiga turki beruvchi “yettinchi tuyg'u” mavjud bo'lmaydi. Kelajakda ham inson ijodkorlik va mantiqan fikrlash, his qilish qobiliyati bilan har qanday texnologiyadan ustun bo'lib turaveradi.

Uqish talab etiladi

Yaqinda tog'amnikiga mehmonga bordim. Dasturxon ustidagi gurunnga tog'am uy olish niyatida ekanini aytib qoldi. Lekin qo'l bir oz kaltalik qilayotgan ekan. Ipoteka krediti olishini maslahat berdim. Internetdan yangi qurilayotgan uylar va banklarning kam foizli ipoteka kreditlari bilan tanishtirdim. Tog'am bilan kreditning bosh, oylik to'lovi, jami summasi qancha bo'lishini hisoblashga qiynaldik. Shunda matematikaga ixtisoslashtirilgan maktabda o'qiydigan jiyanimni yordamga chaqirdik. U uy olish shartlarini ikki-uch bor o'qib ko'r-di-da: “Menga



qaysi raqamni qaysi raqamga ko'paytirish yoki qaysi biridan foiz chiqarish kerakligini aytib turing”, dedi va o'zining hisob-kitob qilishga ustaligi, so'zlardan ko'ra raqamlarni yaxshiroq tushunishini qistirib o'tdi.

U aytganlarimizni hisoblagichlardan ham yechdi. Ammo men unga matnli misol ko'rinishiga keltirib berdim. Jiyanim bunda qiynaldi. Balki buni uning bilimsizligiga yo'yarsiz. Lekin men aniq fanlardan bilimi kuchli ko'p yoshlarning darslik va o'rgangan kitoblardan boshqacharoq shartlardagi masalaga duch kelganda qiynalib qolganini ko'p bora kuzatdim.

Albatta, matematik misollarni bexato yechish, formula, qonun-qoida yoki boshqa



ma'lumotlarni yoddan bilish katta mehnat, o'qib-izlanish talab qiladi. Balki 30-40 yil ilgari bunday insonlar qadrlangandir. Ammo bugun davr butunlay boshqacha. Sababi, birgina ChatGPT texnologiyasining o'ziyoq bizga lahzada har qanday mavzu yuzasidan ma'lumotlarni qalashtirib tashlashi yoki har qanday qiyin tenglarni ham bir zumda yecha olishi mumkin.

Bugun kadrarga talab ancha oshgan. Endi ularga yuqoridagi qobiliyatlarning o'zi yetarli emas, yosh kadrlar matematik misollarni bexato yechish bilan birga raqamlarni so'zlata olishi ham kerak. Formulalarni yoddan bilishigina kifoya qilmaydi. Ularni amaliyotda qo'llash qobiliyati, qonun-qoidalarga ijtimoiy hayotda amal qilinishini ta'minlash uchun yangi loyihalarni hayotga tatbiq etishga yetadigan keng dunyoqarash zarur. Bir so'z bilan aytganda, yosh avloddan o'qishgina emas, uqish talab etiladi.

Til vosita, maqsad emas

Yaqinda o'zbek tiliga bag'ishlangan suhbatlarning birida adabiyotshunos olim, professor Qozoqboy Yo'ldoshev bahsli bir fikrni o'rtaga tashladi. U butun dunyoda chet tilni o'rganishga vosita sifatida qaralishi, ammo ayrim yurtdoshlarimiz buni maqsadga aylantirib olayotganini qayd etdi. Tilning dunyo ilmlari kaliti ekanini ta'kidlab, yosh o'zbek o'g'il-qizlar til o'rganish barobarida

— Ingliz tili.

— Ha, u til-ku, sen qaysi yo'nalishga qiziqishingni ayt, aniq fanlarni, tabiiymi, ijtimoiymi?

— Yo'q, faqat ingliz tili, — deya qat'iy javob qildi va so'zida davom erdi. — Otam “Til bilsang bo'ldi, har sohada birinchi bo'lasan, yutasan”, deydi.

— Yana bir sohaning boshini tutish kerak, — dedim yigitchaning gaplaridan o'yg'a tolib.

— Bu eski davriming gapi, hozir til muhim.

Til o'rganishga qancha imtiyoz berilyapti. Foydalanib qolish kerak, — dedi yigitcha.

Bolakay bu gaplarni otasi har doim takrorlashini bildirdi.

To'g'ri, til bilgan yaxshi, koni foyda, lekin faqatgina til bilish bilan inson aqlli bo'lib qolmaydi. Yigitcha davlatimiz rahbarining yoshlarni til o'rganishga da'vatlari hamda chet tillarni o'rganishga yaratilgan imkoniyatlar haqida gapirdi. Prezidentimiz yoshlarga chet tillarni o'rgatish tizimiga katta e'tibor

qaratmoqda. Ammo bu yo'nalishdagi dastur va loyihalar faqatgina chet tillarni o'rganish emas, uning vositasida xorijda o'qib kelib, yetuk mutaxassisga aylanish maqsadida hayotga tatbiq etilgan. “Yorqin kelajak” yoki “El-yurt umidi” jamg'armasi loyihalarining barchasi ushbu maqsadga yo'naltirilgan.

Islohotlar natijasi o'laroq, chet tilni o'rganishga kirishgan yoshlar soni yil sayin ortib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, so'nggi 3 yilda til o'rganayotgan yoshlar soni 2 millionga yetgan bo'lsa, IELTS imtihonidan yuqori ball olganlar 5 karra ko'paygan. Albatta, erishilgan raqamlar quvonarli.

Ammo ayrim o'quv kurslari “3 oyda IELTSdan yetti olib beramiz”, deb til o'rgatish

emas, shunchaki imtihonlardagi savollarni javoblari bilan yodlatmoqda. Bu bilim omadi kelgan yoshlarga imtihonda asqatayotgan bo'lishi mumkin. Ammo yuzaki ta'lim yoshlarning kelgusidagi o'qish va ish faoliyatiga zarracha foyda keltirmaydi.

Buning ustiga keyingi yillarda sun'iy intellektga asoslangan shunday dasturlar ishga tushirilmoqdaki, matn, audio ko'rinishdagi materiallarni bir zumda u tildan boshqasiga o'girishigini mumkin. Balki bir necha yillardan so'ng mikrotexnologiyalar orqali insonlar qaysi tildan foydalanishidan qat'i nazar, hech qiyinchiliksiz muloqotga kirisha olish imkoni paydo bo'lar. Shu bois, ota-onalar farzandlarini to'g'ri yo'naltirishi juda muhim. Chunki avlodlarimiz bizdan ham zamonaviyroq davrda umrguzaronlik qiladi. Farzandingizni faqatgina “choy damlaydigan jin”ga aylantirib qo'yishdan ehtiyot bo'ling.

Muammoning ildizi qayerda?

Mustaqillikning ilk yillarida ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlardan biri oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida testdan foydalanish edi. Bu tizimga o'tilishining asosiy sababi oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida korruptsiya, tanish-bilishchilik urchib ketishi, institutlar imtihonlarni olish shartlarini o'z'lari belgilashi, markazlashgan tizim yo'qligi edi. 1993-yilda oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlari test shakliga o'tgan bo'lsa, 1994-yilda bu bo'yicha mas'ul markaz faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ammo o'tgan davrda bu tizim ham sohani falajlayotgan korruptsiya va tanish-bilishchilik illatining ildiziga bolta urolmadi. Aksincha, yanada avj olishiga zamin yaratdi. Buning ustiga uzoq yillar davomida yangi tizim ta'limning asosini yod olishga moslashtirdi. Yoshlar mavzularni tushunish, tahlil qilishdan ko'ra yod olishni afzal bilib qoldi. Hatto ayrim o'qituvchilar o'quvchilarga “Universitetda kirayotganingda mavzuning mohiyatini sendan hech kim so'ramaydi”, deya dakkli berib, qoida va formulalarni nuqta, verguligacha darslik bilan bir xil qilib aytib berishni talab qilardi.

Bu jarayonni boshdan o'tkazganim uchun yaxshi bilaman. Bunday zo'rma-zo'raki, o'zgartilgan ma'lumotlar tafakkurimizda uzoq vaqt saqlanib qolmaydi. Pedagog, shifokor, moliyachi, yurist — barchasini bir xil mezonlarda baholash sohalarida yangicha qarash, turlicha tafakkur bo'lmasligi, tarmoqlar o'zgarishsiz qotib qolishiga sabab bo'ldi. Vaholanki, bu kasb egalari turli qobiliyatga ega bo'lishi zarur. Masalan, pedagoglar notiq, bola psixologiyasini yaxshi tushunishi talab etiladi.

Ta'lim tizimidagi tub islohotlar natijasida 2019-2020-yillarga kelib, oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlaridagi korruptsiya va tanish-bilishchilik illatiga butkul barham berildi. Bunda sohaning raqamlashtirilishi, imtihonlarga onlayn kuzatuv va boshqa zamonaviy texnologiyalar jalb qilinishi orqali erishildi. Shuningdek, yana bir katta voqelik — ijodiy qobiliyat talab etuvchi

yo'nalishlarga ijodiy imtihonlar olish tizimi joriy etildi.

Xalqaro tajribaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Janubiy Koreyada oliy ta'lim muassasalariga imtihonlari juda murakkab va ko'p bosqichli (esse, og'zaki savollar, raqamli testlar) o'tkaziladi. Yevropa davlatlarining aksariyatida o'quvchining maktab davridagi o'zlashtirishi (baholari) hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bosqichma-bosqich O'zbekistonda ham bu sohada o'zgarish va yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, sertifikatlarga ega bo'lish orqali oliy ta'lim muassasasiga kirish uchun ball yig'ish, yo bo'lmasa, kelgusi o'quv yilidan 9- va 11-sinf o'quvchilari uchun yagona davlat imtihonlari o'tkazilishi fikrimizni isbotlaydi.

Oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarining shakl-shamoyili, mazmun-mohiyati o'zgariyapti. Demak, muammo bir-ikki yilda bartaraf etiladi deyishga shoshilmang. Sababi, birinchidan, sertifikatlarga tayyorlashda o'quv markazlari, maktablar yodlatish usulidan foydalanmoqda. Bundan tashqari, maktablardagi o'quv jarayonlarida ham nazorat ishlari ko'proq test tizimida olinadi.

Sun'iy intellektga asoslangan bugungi texnologiyalar rivojlanib borayotgan, hatto birinchi sinf o'quvchilarida ham so'nggi rusumdagi telefon bor bir davrda test orqali nazorat ishi olish o'quvchilar bilim darajasini aniqlashda yordam bera olmayapti. Og'zaki nazoratlardan ko'proq foydalanish o'rinni. Ta'lim berishning maqsadi va usullarini ham o'zgartirish talab etiladi.

Fikrlashga o'rgatish darkor

Ta'lim tizimi rivojlangan davlatlar o'quvchilarga bilim berishda mantiqiy fikrlash, dunyoqarashni kengaytirish, tahlil qobiliyatini o'stirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Ushbu sohada yetakchi davlatlardan biri Finlyandiya ta'lim tizimida integratsiyalangan ta'lim modelidan unumli foydalaniladi. Bu qanday model? Ushbu tizimda dars jarayonlari fanlarga emas, mavzularga bo'linadi. Masalan, “suv” mavzusi bo'yicha o'quvchilarga bir vaqtning o'zida suvning kimyoviy xossalari, fizik xususiyati, geografik, ekologik ahamiyati o'rgatiladi. Bir so'z bilan aytganda, bir mavzu turli rakurslarda ko'rib chiqiladi. Bu o'quvchida mavzu bo'yicha to'laqonli tasavvurni shakllantiradi.

Nazorat ishlariida ayrim mamlakatlar ta'lim tizimida mahalliy kichik muammo tanlanadi. Masalan, aynan shu hududga tegishli chiqindi yoki havo ifloslanishi, xazonlar yoqilishi kabi holatlar yechimini topish vazifasi beriladi. O'quvchilar bu muammoni hal qilish bo'yicha o'z loyihasini taqdimot qilib beradi va ular foydalliligiga qarab baholalanadi. Yuqorida aytganimizdek, bugungi zamonaviy texnologiyalar davrida inson qiymati uning innovatsion, kreativ fikrlashi, tahlil qila olish qobiliyati bilan baholalanadi.

Bir boyning ikki xizmatkori bo'lgan ekan. Boy ularning biriga o'n tanga, ikkinchisiga bir tanga maosh berarkan. Kam oladigani bir kuni boyya shikoyat qilib, bir xil ishni bajarishda-da, sherigi undan o'n karra ko'proq haq olishini tushunmayotganini aytibdi. Boy javob o'rminga unga “Ko'chaga chiqib qarachi, nima shoqvin ekan?” deb ish buyuribdi.

Xizmatkor qaytib kelib, ko'chaga savdogarlar kelganini aytibdi. Boy “Qayerdan kelibdi?” deb so'rabdi. Xizmatkor so'ramaganini bildiribdi. Keyin boy o'n tanga oladigan xizmatkorini chaqirib, unga ham xuddi shu yumushni buyuribdi. Xizmatkor bir borishning o'zida boyya savdogarlar qayerdan kelib, qayerga ketayotgani, nima sotib, nima olayotgani haqida to'liq ma'lumot keltiribdi...

Bu rivoyatdan fahm, ilm-u zakovatning foydasini bilsa bo'ladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sun'iy intellekt rivojlangan bir davrda avlodlarimiz “tabiiy” bilimlarga ega bo'lishi davr talabi. O'zbekiston ta'lim tizimining maqsadi “o'n tanga” oladigan avlodlarni tarbiyalash bo'lishi kerak. Shundaygina ular yangi O'zbekistonda barpo etadigan oltin avlod bo'lishi shubhasiz.